



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

FIDOKORNING XIZMATLARIN YOD ETIB

"Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi anjumanlar zalida "Rustam Qosimov zamondoshlari xotirasida" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. ...Ushbu to'plam "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan bo'lib, unda Rustam Qosimovning nuqtadonligi va salohiyati, tashabbuskorligi va tashkilotchilik fazilatleri, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lida ko'rsatgan jonbozligi hayotiy misollar orqali bayon etilgan..."



(5-sahifada o'qing.)

SHARH



O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI

SHHT ta'siri va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi

Yaqinda Xitoy Xalq Respublikasining yirik port shahri – Tyantszin'da bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammiti xalqaro miqyosda ushbu tuzilmaning siyosiy va iqtisodiy vazni tobora ortib borayotganini namoyon etdi, desak, adashmagan bo'lamiz. 2001-yil iyun oyida oltita davlat tomonidan asos solingan va mintaqaviy xavfsizlik guruhi sifatida ish boshlagan ushbu birlashma bugungi kunda dunyo aholisining deyarli yarmini, Yer yuzi va jahon YalMning to'rtidan bir qismini qamrab olgan global tashkilotga aylanib ulguriganiga barchamiz guvohmiz.

Ayni paytda 10 ta a'zo, 2 ta kuzatuvchi va 14 ta muloqot bo'yicha sherik mamlakatni o'z ichiga oladigan tashkilot o'zaro ishonch va teng huquqlilik, o'zaro maslahatlashuvlar, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, birgalikda rivojlanishga intilish bilan tavsiflanadigan "Shanxay ruhi"ga amal qiladi.

Bugungi kunda tashkilot doirasidagi hamkorlik 50 dan ortiq yo'nalishni qamrab oladi, iqtisodiyotining umumiy hajmi qariyb 30 trillion AQSH dollariga yetadi.

Demak, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – bu shunchaki davlatlar klubi emas, balki ko'p tomonlama hamkorlikning yangi qutblari shakllanadigan strategik platforma hamdir. Tuzilma xalqaro doiralarda "kelajak laboratoriyasi" deb atalayotgani ham bejiz emas, negaki, bu makonda "mintaqa-mintaqa" hamkorlik formati rivojlanadi. Masalan, O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarning faol tashabbuslari orqali Markaziy Osiyo bugun nafaqat SHHTning tayanch mintaqasi, balki mintaqalararo va blokdan tashqari hamkorliklarning drayveri sifatida ham ko'rib chiqilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo – ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi) va Markaziy Osiyo – Yaqin Sharq aloqalari shakllanmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga besh kunlik rasmiy tashrifi yilning eng muhim siyosiy voqealaridan biri bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining SHHT-ning Tyantszin sammitida, "SHHT plus" formatidagi muloqotlarda ishtiroki, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipin bilan uchrashuvi, ushbu mamlakatning nufuzli kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralari hamda erishilgan ko'p milliardli bitimlarning O'zbekiston xalqi farovonligi uchun ahamiyati beqiyos. G'alabaniy 80 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirlarda ishtirok etish O'zbekistonning tarixiy xotiraga hurmat-ehtiromini ifodaladi hamda tinchlik, barqarorlik va xalqlar o'rtasidagi hamkorlik kabi umumiy qadriyatlarga sodiqligini tasdiqladi.

Tyantszin sammiti SHHT tarixidagi eng yirik anjumanlardan biri bo'ldi. Sammitda xalqaro tashkilotlar rahbarlari, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish hamda 20 dan ortiq davlat rahbarlari qatnashdi. Bu SHHT tarixidagi mutlaq rekord ko'rsatkichidir.

Sammit va "SHHT plus" formatidagi uchrashuvlarda tashkilotning 2035-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi, shuningdek, "Tyantszin deklaratsiyasi"ni o'z ichiga olgan asosiy hujjatlar paketi imzolandi.

O'zbekiston nufuzli tashkilot ishida muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surib kelmog'ida. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yildan 2024-yilgacha tuzilma faoliyatini kuchaytirishga oid 50 dan ziyod takliflar bildirilgan bo'lsa, navbatdagi sammit va "SHHT plus" majlisida tashkilotning siyosiy asoslarini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirish, iqtisodiy va madaniy-

gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yana qator muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Aytish joizki, O'zbekiston Prezidentining takliflari hech qachon qog'ozlarda qolib ketmagan. SHHTning "yo'l xaritalari", me'yoriy-huquqiy, dasturiy va konseptual hujjatlari doirasida, shuningdek, ko'p tomonlama hamkorlikning yangi mexanizmlari shaklida izchil amalga oshirilmoqda. Bu taklif va tashabbuslar tufayli tashkilotning samaradorligi yuksalib, safi tobora kengaymoqda, tuzilma xalqaro munosabatlarda o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda.

Tyantszin sammitining muhim yakunlaridan biri sifatida SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi asosida Toshkent shahrida doimiy faoliyat yuritadigan organ – SHHTga a'zo davlatlarning xavfsizlikka tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha Universal markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Uning huzurida SHHT Axborot xavfsizligi markazi ham tuziladi. Ushbu qaror xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

Prezidentimiz sammitda global va mintaqaviy xavfsizlikning tobora murakkablashib borayotganiga alohida e'tibor qaratib, yadroviy xavfsizlikni ta'minlash, gijohvandlikka qarshi kurashni kuchaytirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatishga qaratilgan aniq takliflarni ilgari surdi. Xususan, "SHHT-Afg'oniston" muloqot guruhi ishini faollashtirishni taklif etdi.

(Davomi 2-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Salim ASHUR

TONGLAR KABI OQ YURTIM

Tarixlarning qatida,
Bitiktoshlar xatida,
Humo, Semurg' patida
Taraldi xabarlarining.
Tog'lar o'sdi poyingdan,
Daryo o'sdi soyingdan,
Vatan, o'sgan joyingdan
Yaraldi safarlaring.

Yovlar keldi – bo'zlading,
Qonlar yutib so'zlading,
Ozodlikni ko'zlading,
Sen ozod bo'lding, Vatan.
Farzandlaring jon bo'ldi,
El-yurt jonajon bo'ldi,
Madhing kuy, doston bo'ldi,
Sen obod bo'lding, Vatan.

Yomg'irlaring, qoringni,
Quvonching, ozoringni,
Boshdan oyoq boringni
Muqaddas bildim, Vatan.
Ma'no bo'lib so'zingga,
Kiprik bo'lib ko'zingga,
Senga, senga – o'zingga
Jon fido qildim, Vatan.

Jaranglaydi ovozing,
Buncha aziz qish, yozing,
Mening yuksak parvozim –
Sen qanotimsan, Vatan.
Bola bo'lib yugurdim,
Qo'lingdan tutib yurdim,
Tonglar kabi oq yurtim,
Sen hayotimsan, Vatan!

ILM YO'LI

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali rektori, akademik Qalandar Abdurahmonovni yurtidoshlarimiz yaxshi biladi. Inson kapitali va mehnat iqtisodiyoti yo'nalishida ilmiy maktab yaratgan taniqli olim bilan suhbatimizning asosiy mavzusi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida kechdi.



– Ustoz, Yangi O'zbekiston g'oyasi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Olim sifatida bu islohotlarning asosiy yo'nalishlarini qanday baholaysiz?

– Yangi O'zbekiston g'oyasi mamlakat taraqqiyotida yangi bosqichni ochdi. Bu g'oyaning mar-

kazida oddiy insonning manfaati, qonun ustuvorligi, tadbirkorlikka qulay muhit, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash hamda raqamli yechimlar turibdi. Ya'ni islohotlar faqat qonuniy hujjatlar emas, balki har bir xonadon his qiladigan o'zgarishlardir.

(Davomi 3-sahifada.)

IFTIXOR

YOZISHGA EMAS... SANASHGA-DA ULGURMAYMIZ



Huv o'sha zamonlarda – o'tgan asrning 80-yillari adog'ida uch yilcha tuman gazetasida ishlaganman. Bosh muharrir o'rinbosari o'laroq, har oy uchun reja tuzish zimmamda edi. Gazetaning doimiy ruknlaridan biri "Dolzab qurilish inshootlarida" deb atalar va har oyda qaysidir qurilishning borishi to'g'risida lavha, reportaj tayyorlash majburiyati yuklangandi bizga.

Yodimda, o'sha vaqtda tuman-da shunday ikki inshoot: 640

o'rinli maktab va yana biri 150 o'rinli bolalar bog'chasi qurilishi bo'lib, har oyda shu joydan katta-yu kichik maqola tayyorlab, gazetada chop qilardik. Bu bevosita rayqo'm nazoratida bo'lgani uchun mavzu tasodifan unutilsa, javobgarligi qattiq bo'lardi.

Gazetada ish boshlaganimda o'sha maktab qurilishi boshlanganiga yarim, bog'chaga esa bir yilcha bo'lib qolgandi. Har ikkisi ham ikki qavatli bo'lib, qurilishda tumandagi to'rtta mexanizatsiyalashgan qurilish kolonnasining birisi butun tarkibi bilan "kecha-yu kunduzi javlon urishardi".

(Davomi 6-sahifada.)

MILLAT FIDOYLARI



Orenburgdagi mashhur "Husayniya" jadid maktabi.


Bugun o'zbek jadid ziyolilari bilan yelkadosh bo'lib, xalqning ma'naviy uyg'onishi va milliy ozodligi yo'lida bor kuchini ayamagan atoqli shaxslardan biri – tatar ziyolisi Sodiq Abdusattorov haqida so'z yuritmoqchimiz.

ERKSEVAR MUHARRIR

Sodiq Abdusattorov 1884-yili Ufa guberniyasi, Sentovskiy qishlog'ida savdogar oilasida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni dastlab rus maktabida, so'ngra Orenburg shahridagi mashhur jadid maktabi – "Husayniya"da olgan. Bu muassasada u Rizoutdin Faxritdinov, Sagit Ramiyev, Sharif Kamol singari taniqli ziyolilardan ham diniy, ham dunyoviy fanlarni o'rgangan, rus, arab, turk tillarini mukammal egallagan. Yigirma

yoshida madrasani "a'lo"ga tamomlagach, 1905–1916-yillarda Ufadagi yana bir nomdor madrasa – "Galiya"da muallimlik qilgan. U Ufa shahridagi pedagogik faoliyati davomida o'sha davrning jadid faollari Rashid qozi Ibrohimov, G'ilman Oxun Karimov, Abdulla Bubi, Ubaydullo Bubi, Ziyo Kamoliy bilan birgalikda siyosiy-ma'rifiy ishlar olib borgan.

(Davomi 7-sahifada.)



O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI

SHHT ta'siri va jozibadorligini oshirishga
xizmat qiladi

Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbekiston rahbari SHHT makonida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash zarurligini doimiy ravishda ilgari suradi. Bu maqsadlarga erishish uchun Shavkat Mirziyoyev savdoni soddalashtirish tartib-taomillari to'g'risidagi bitimni imzolash taklifi ilgari surdi. Savdo to'siqlarini bartaraf etish va bojxona tartib-taomillari soddalashtirish SHHT iqtisodiyotining o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu bitim SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlash, savdo xarajatlari kamaytirish va biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga imkon beradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda, albatta, strategik materiallarga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Davlatimiz rahbari ushbu sohadagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Strategik materiallar bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil etishni taklif etdi. Ushbu markaz strategik materiallarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va uzatish sohasida tajriba almashish, investitsiyalarni jalb qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun platforma vazifasini o'taydi.

Energetika xavfsizligi SHHTga a'zo davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti Energetika konsorsiumini tuzishni taklif etdi. Ushbu konsorsium energiya resurslarini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Prezidentimiz iqlim o'zgarishining mintaqaga ta'sirini yumshatish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan muhim tashabbusni bildirdi. Prezident taklifi-ga ko'ra, SHHTga a'zo davlatlar uchun iqlim o'zgarishiga moslashish, uglerod-sizlashtirish va ekologik xavflarni prognoz qilish uchun mintaqaviy platforma yaratiladi.

Gumanitar hamkorlik sohasidagi tashabbuslar ham ahamiyatli. Xalqaro xalq ijodiyoti festivalini o'tkazish, "SHHT universiteti"ning onlayn-kampusini ishga tushirish, sayyohlik yo'lagini rivojlantirish g'oyalari e'tirofga loyiq. Bular "xalq diplomatiyasi" institutini mustahkamlovchi, bilim, madaniy boyliklar almashinuvi uchun shart-sharoit yaratuvchi va ishtirokchi davlatlar o'rtasida chinakam hamjihatlik tuyg'usini shakllantiradigan loyihalardir.


O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutzida xalqaro vaziyatning chuqur tahlili va amaliy yechimlar uzviy mujassamlashganini xalqaro doiralar va ekspertlar e'tirof etayotganini alohida ta'kidlash zarur.



Abduvali SOYIBNAZAROV,
siyosiy sharhlovchi

TARIX VA BUGUN

O'zbekiston–Yaponiya:



Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev joriy yil 27-avgust kuni Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takeshi Iwayani rasman qabul qilishi, aslida, protokoldan kengroq ma'no kasb etdi. Unda O'zbekiston–Yaponiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston–Yaponiya markazi faoliyatini kengaytirish va kelgusida uning negizida Yaponiyaning yetakchi universitetlari ishtirokida qo'shma universitet tashkil etish rejalari qo'llab-quvvatlandi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, "Markaziy Osiyo + Yaponiya" formatidagi bo'lajak sammitni o'tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

Tarixga nazar solsak, Yaponiyada Markaziy Osiyoga qiziqish XIX asr

oxirida yangi bosqichga ko'tarilgan. Bu yapon davlat arbobi va diplomati Nishi Tokudziro (1847–1912) nomi bilan bevosita bog'liqdir.

1847-yilda tug'ilgan Nishi Tokudziro Meydzi davrida yangi hukumat tomonidan Rossiyaga yuborilib, Sankt-Peterburg universitetida tahsil oldi. Bu yerda u til, madaniyat va siyosiy muhitni chuqur angladi. Keyinchalik muvaqqat elchi sifatida faoliyat ko'rsatdi va ana shu tajribalar unga tarixiy voqealarni kuzatish va tahlil qilish malakasini berdi. Shu bois, 1880-yildagi sayohat uning hayotidagi burilish nuqtasiga aylandi.

XIX asr oxiri – duno xaritasi qayta chizilayotgan, eski yo'llar yangi mazmun kasb etayotgan, yangi qudratlar tarix sahnasiga qadam qo'yayotgan davr edi. Ana shu burilishlar girdobida yosh yapon diplomati Nishi Tokudziro o'z hayotidagi eng jasur qarorlardan birini qabul qildi: u dengiz yo'lidagi qaytish o'rniga qit'a ichkarisiga – Turkiston tuprog'iga qadam qo'ydi. Bu tasodifiy tanlov emas, balki tarixiy izlanish va ma'naviy jasoratning ifodasi edi. Uning rasmiy maqsadi Rossiya va Xitoy o'rtasidagi asosiy bahs – Ili (Yettisuv) masalasini o'rganish edi, ammo yo'l uni bundan ham kengroq ma'no izlashga yetakladi.

Yo'l Peterburgdan boshlandi. Ilyul oyida rasmiy vazifalarini topshirib, u Orenburg orqali Qazalga yo'l oldi va Sirdaryo bo'ylab Toshkentga keldi. Yo'l manzaralari – rus



Nishi Tokudziro (1847–1912)

qo'shinlari, yangi ma'muriy tartiblar va eski karvon yo'llarining qorishuvi, bozorlardagi tinimsiz harakat, odamlarning yangi tartibga endi-endi ko'nikayotgan holati – barchasi Nishining kundaligida jonli tasvirlandi.

U uchun Toshkent faqat geografik nuqta emas, balki yangi markaz edi: harbiy quvvat, savdo yo'llari va madaniy iplar ayni shu yerda tutashardi. Nishining yo'li mantiqiy davom etar ekan, keyingi manzil Samarqand edi. Dunyoga mashhur bu ulug' shahar o'zida tarix va zamon quvvatini mujassam etgan: Registon maydoni va madrasalar ulug'vorlikni, bozorlar va karvonlar esa hayotning jo'shqin ritmini namoyon etardi.

IZHOR

Muhaddislar sultoni Imom Buxoriyning "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" degan hikmati, mana, oradan 12 asr o'tgan bo'lsa ham, o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Sakson yillik umrini davomida bu so'zlar haqiqat ekaniga guvoh bo'ldim. Prezidentimiz farmoniga binoan "Imom Buxoriy" ordeni bilan taqdirlangan kunlarimda ortda qolayotgan umr va ilm yo'lim haqida ko'p o'yladim. Bu manzilga olib kelgan ba'zan ravon, ba'zan chaqirtikonli yo'llarni qayta bosib o'tganday bo'ldim.

Men 1945-yilda Toshkent shahrida, oddiy ishchi oilasida tug'ilganman. Bolaligim o'ta og'ir yillarga to'g'ri keldi. Zamon qanchalar murakkab va nozik bo'lmasin, ota-onam bilim olishimga katta e'tibor qaratdi. 1970-yilda Toshkent davlat universitetining Sharq fakulteti arab tili bo'limini muvaffaqiyatli bitirdim. Soham bo'yicha yangi bilimlarni egallash va tajriba oshirish maqsadida bir necha yil Misr va Iroqda tarjimonlik qildim. Misr Arab Respublikasining Ayn ash-Shams universitetida o'qituvchi bo'lib ishladim.

Vatanga qaytgach, to'plagan ilimni ToshDU Sharq fakultetining arab filologiyasi kafedrasida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universitetini rivojlantirishga yo'naltirdim. Hozirgi kunda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrasida dotsenti lavozimida ishlab kelmoqdaman.

Olim sifatida zamonaviy arab adabiyoti va islomshunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarni olib bordin. 2002-yilda "Hozirgi zamon Suriya romanchiligining rivojlanish xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari (Xanna Mina ijodi misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildim. 2004-yili "Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlari adabiyoti" ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvonini oldim.

Mustaqillik yillarida dunyoga keng yo'llar ochilgani sharoifi bilan qator xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etdim. Xususan, "YUNESKO kafedralarining yubiley konferensiyasi" (Parij), "Siyosiy strategiyalar: Fundamentalizmga qarshi kurash" (Germaniya), "XXI asrda musulmon dunyosi" (Istanbul), "Musulmon mamlakatlarida ta'lim tizimi" (Istanbul), "Islom madaniyati" (Makka) kabi xalqaro anjumanlarda ma'ruza qilish baxtiga musharraf bo'ldim.

Bugun esa O'zbekistonning o'zi qator xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarga munosib mezonlik qilmoqda. Buning uchun Vatanimizda barcha sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq,

Toshkent islom universiteti va O'zbekiston islom akademiyasi negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. 2025-yil 21-aprel kuni esa muhim hujjat, O'zbekiston Prezidentining "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni qabul qilinib, unga muvofiq, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi deb qayta nomlandi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilgari tariximizda bo'lmagan ulkan va noyob loyihadir. Markaz ilmiy-ma'rifiy va diniy-ma'naviy infratuzilmaning yangi innovatsion shaklini o'zida mujassam etgan xalqaro platforma bo'lib, uning asosiy vazifasi buyuk ajdodlar merosini o'rganish va targ'ib qilish, "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori" g'oyasini ommalashtirish hamda xalqimizning o'tgan davr va Yangi Renessans zamonidagi yutuqlarini chuqur tadqiq qilishdan iborat.

O'z sohamdan kelib chiqadigan bo'lsam, dunyo Mahmud Zamaxshariy avlodlaridan ko'p narsa kutadi, o'zbekistonlik olimlarning chiqishlari arab tili mutaxassislarini doim o'ziga jalb qilib kelgan. Bu bejiz emas. Zero, Mahmud Zamaxshariy (1075–1144) Markaziy Osiyodan chiqqan eng mashhur tilshunos, mufassir va adibdir. U arab tili rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Uning ishlari nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom olamida arab tili ilmining asosiy manbalaridan bo'lib xizmat qilgan. Olimning "Al-Mufasssal fi san'at al-i'rob" asari arab tili grammatikasining eng mukammal qo'llanmalaridan biridir. Unda nahv (sintaksis) va sarf (morfologiya) qoidalari tartibli va tizimli ravishda izohlangan. Bu kitob keyingi grammatiklarga asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Zamaxshariy arab tilidagi lug'at boyligini, badiiy uslublarni chuqur o'rgangan. U arab adabiyotida qo'llanilgan so'z san'atlarini tartibga soldi va ilmiy asos bilan izoh berdi. Bobomiz "Asos al-balag'a" ("Balog'at asosi") lug'atini tuzgan. Bu lug'at arab tilidagi so'zlarning ma'nosini faqat quruq izoh bilan emas, balki adabiy misollar va iboralarda qo'llanishi bilan keltiradi. Shuning uchun asar arab tili o'qitishda, xususan, adabiy tilni o'rganishda asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Va shu bois u arab olamida "tilshunoslarning imomi" sifatida ulug'lanadi. Biz ana shunday bemisl xazinaga munosib vorislik qilishimiz kerak.

Arab tili va adabiyotini o'rganish bizga buyuk tariximizni teran anglashga, haqiqatni aniqlashtirishga yordam beradi. Chunki arab tilining Markaziy Osiyo ilm-fani, adabiyoti va madaniyatiga ta'siri juda keng va ko'p qatlamli bo'lgan. Xususan, arab adabiyotidagi qasida, marsiya, qit'a, ruboiy kabi janrlar Markaziy Osiyo adabiyotida keng tarqaldi. Qur'on va hadislar



asosida yozilgan tafsir, hadis, fiqh asarlari adabiy-nazmiy uslubga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Nasrida maqoma janri, she'riyatda madhiya va hamd an'analar paydo bo'ldi. Qur'ondagi balog'at va badiyat (go'zallik, so'z o'yinlari, metafora, tashbeh, saj) Markaziy Osiyo shoirlariga ulkan ilhom manbayi bo'ldi. She'riyatda arab aruz vazni keng yoyildi. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi shoirlar aruzda ijod qildi.

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona ilmiy markazlarga aylangan davrda arab tili ilm-fan va falsafaning xalqaro tili bo'ldi. Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy kabi allomalar o'z asarlarini arab tilida yozgan. Bu asarlar keyinchalik Yevropa Uyg'onish davriga ham ta'sir ko'rsatgan. Fikrimni ulug' jaded Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolasidan olingan parcha bilan davom ettirsam: "Biz turkistoniyarlarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur". Bu qatorda arab tilining sanalishi sababi ko'pchilikka ma'lum. Birinchi va Ikkinchi Renessans davridagi ilmiy va badiiy adabiyotlarning katta qismi arab tilida yozilgandir. Arab tilini bilgan olimlar bu merosni asl nusxada o'qib, tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z tarixiy ildizlarimizni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Yana bir faktni ta'kidlashni istardimki, arab tili BMT rasmiy tillari safidan joy olgan. Bu ham ushbu tilning strategik ahamiyatidan darak beradi. Shu ma'noda, bugun O'zbekistonda ilm-fan sohasiga, xususan, arab tili va adabiyotiga ilmiy yondashuv yangi bosqichga ko'tarildi. Olimlar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilinib, faqat ilm bilan shug'ullanishga jalb qilindi. Bunday keng qamrovli islohotlar davrida "Endi nuroniy bo'ldik, qolganini yoshlar qilaversin", deb chetda turish yaramaydi. O'qituvchi nafaqaga chiqishi mumkin, lekin olim hatto, ta'tilga chiqmaydi. Uning faoliyati umrboddir.

**Abdulhay ABDULLAYEV,
"Imom Buxoriy" ordeni
sovrindori**

XALQLARNI MA'NAVIYAT BIRLASHTIRADI

Samarqandda u nafaqat shaharning ulkan ruhini his etdi, balki "Katta o'yin"ning – Rossiya va Angliya o'rtasidagi siyosiy bellashuvning yaxlit manzarasini ham anglay boshladi. Bu yerda uning zimmasiga shunchaki faktlarni qayd etish emas, balki kelajak manzarasini anglash mas'uliyati tushdi.

Safarning navbatdagi yo'nalishi Nishini Buxoroga yetakladi. 1880-yil sentyabr oyida u amir Muza'ffar huzuriga kirdi. Saroyning qator qoidalarini, marosimning o'ziga xos ohangi, siyosiy va diniy hayotning chambarchas tartibi – barchasi uning kundaligida o'z aksini topdi. Nishi bu manzarani befarq kuzatuvchi sifatida emas, balki "Sharq yuragi"ni his etgan ziyoli sifatida qayd etdi. U Buxoroda hokimiyatning faqat tashqi suratini emas, balki uning ortidagi ma'naviy mohiyatini ham ko'ra oldi. Shu jihati bilan uning qaydlari shunchaki safar xotirasi emas, balki ichiga ruh joylangan tarixiy hujjat sifatida qadrlidir.

Buxoroda u shunday xulosaga keldi: har qanday marosim, har qanday tantana ortida ma'naviy mazmun yashiringan bo'ladi. Agar tarixda Buxoro marosimi sharqona odob va axloqning ramzi bo'lgan bo'lsa, bugungi Toshkentdagi diplomatik qabul ham xuddi shunday – zamonaviy odob va hurmatning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda eng ishonarli til – hurmat va ishonch tilidir.

Shundan keyin, sentyabr oyining oxirlarida Nishi yana yo'lga chiqdi. U

Tyan-Shan tog'lari shimoliy yo'lidagi ilga o'tdi. Bu safarda u yana bir muhim manzilga – geosiyosiy ahamiyati beqiyos chorrahaga yetdi. 1880-yil noyabr oyida Yettisuv yuragi, Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo chorrahasi uning kundaligidagi eng diqqatga sazovor sahifalardan biriga aylandi. Chunki bu yerda savdo oqimlari, xalqlar turmush tarzi, yo'l-u yolg'onlar, diplomatik manfaatlar bir nuqtada to'qnashardi. Bozorlardagi harakat, karvonlar qadamlari, turli xalqlarning yuzlaridagi umid va xavotir alomatlari – Nishi barchasini diqqat bilan qayd etdi.

Shundan so'ng, u yana uzoq yo'lga chiqdi. Sibirning keng o'lkalari, Mo'g'uliston saholari, Xitoyning shahar va qishloqlaridan o'tdi. Har bir manzil uning kundaligida bitta jumla yoki qisqa qayd bilan emas, balki jonli voqea, diqqat bilan kuzatilgan holat sifatida aks eta bordi. Va nihoyat, 1881-yil aprel oyida u Tokioga qaytib keldi.

Sakkiz oylik bu sayohat yuzlab bekatlar va o'nlab shaharlar manzarasini o'zida jamladi. Har bir bekat – tarixiy dalil, har bir manzara – ma'naviy guvoh edi. Nishining kundaligi ana shu guvohliklarni kelajakka yetkazdi. Bugungi qabul esa ana shu guvohliklarning davomidek – o'tmishdan kelgan ma'no bugungi muloqotda yangi mazmunga aylanmoqda.

Nishi Tokudzironing shaxsiy tajribasi ilmiy merosga aylandi: 1886-yilda u ikki jildlik "Markaziy Osiyo yilnomalari" asarini nashr etdi. Unda Toshkent,

Samarqand, Buxoro, Ili haqidagi satrlar, shaharsozlik, savdo oqimlari, temiryo'l g'oyasiga qiziqish, rus ma'muriyati tutumi va mahalliy an'ana kabi jihatlarni jonli hujjat sifatida qayd etiladi. Bu kitob Yaponiyada Markaziy Osiyoni anglash poydevorlaridan biri sifatida qabul qilindi; keyingi yillardagi tarjimalar va qayta nashrlar esa uning manba sifatidagi qiymatini yanada mustahkamladi.

Tarixda ba'zi voqealar borki, sodir bo'lgan paytda oddiydek ko'rindi, ammo yillar o'tgach, uning asl mohiyati namoyon bo'ladi. Nishi Tokudzironing 1880-yildagi sayohati ham ana shunday voqealar sirasiga kiradi: u shunchaki yo'l emas – ikki xalq o'rtasidagi ma'naviy eshik bo'lgan.

Endilikda tarixiy iz va zamonaviy muloqot o'rtasidagi rishtani yanada ochiqroq ko'ramiz: Toshkentda yangi sahifa ochildi – Nishining Toshkentdagi qaydlarida "yangi markaz" hissi bor edi; Samarqandda Nishi ulug'vorlikni yozgan – bugungi muloqot ham ulug' niyat va hayotiy amal uyg'unligini ko'zlaydi; Buxoroda u diplomatik odobni kuzatgan – bugungi qabul ham odobning zamonaviy qiyofasini ko'rsatadi.

Yakunda bir haqiqat yanada ravshan ko'rindi: xalqlarni birlashtiradigan kuch qurol yoki bosim emas – ilm, madaniyat va ma'naviyatdir.

**Bo'ri QODIROV,
Alisher ATAYEV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti xodimlari**



Boshlanishi 1-sahifada.

Birinchidan, davlat xizmati ochiqroq va tezkorroq bo'lyapti, ko'plab ruxsatnoma va arizalar elektron tartibga o'tdi, navbatlar qisqardi. Bu tadbirkor uchun ham, aholi uchun ham vaqt va sarfni tejaydi. Ikkinchidan, xususiy sektorga e'tibor kuchaydi, soliq va boj jarayonlari soddalashtirildi, eksportga chiqish uchun sertifikat va tekshiruvlar bir darcha orqali tashkil etilyapti. Uchinchidan, inson kapitaliga sarmoya oshmoqda: maktab, kasb-hunar maktablari va universitetlarda amaliy tayyorgarlikka e'tibor kuchayib, ish beruvchilar bilan hamkorlik kengaymoqda. To'rtinchidan, yashil energetika va suv tejamkorligiga o'tish boshlandi, bu nafaqat atrof-muhit, balki kelgusi hisob-kitoblarimiz uchun ham foydali.

Amaliyot nuqtayi nazaridan nimalarni ustuvor deb bilaman? Birinchidan: har bir tumanda tezkor kasbiy qayta tayyorlash markazlarini kengaytirish kerak, u yerda 3–6 oyda amaliy kasb egallash imkoni bo'lsin. Kollej va universitetlarda ish beruvchi bilan shartnoma asosida amaliyot o'tash tizimi haqiqiy ish tajribasi va birinchi maoshga olib chiqadi. Ikkinchidan: kichik biznes uchun arzon kredit va kafillik mexanizmlari osonlashishi shart, loyiha hujjatlarini ko'p oylab kutish o'rniga qisqa ro'yxat va aniq muddat bo'lsin. Uchinchi amaliy qadam: eksport qiluvchi korxonalarga sertifikat, laboratoriya tekshiruv va logistikada "tez yo'lak" joriy etish, tunda ham ishlaydigan elektron navbat orqali hujjat aylanishini tezlashtirish lozim. To'rtinchidan: aholi uchun sezilarli bo'ladigan kichik, lekin muhim islohotlar – poliklinikada navbatni to'liq onlayn bron qilish, ta'limda bolalar uchun bepul bazaviy raqamli ko'nikmalar kurslari, kommunal xizmatlarda "a'lo xizmat ko'rsatgan xonadon" kabi motivatsiya dasturlari hayotga tatbiq etilsa, "inson qadri eng ustuvor vazifa" degan g'oyamizga kengroq va tezroq erishamiz.

Albatta, har qanday katta o'zgarish ijro intizomiga bog'liq. Shuning uchun men natijaga tayangan boshqaruvni muhim deb bilaman: har bir loyihaning javobgari, muddati va o'lovchilari oshkora e'lon qilinsa, jamoatchilik fikri bilan doimiy muloqot bo'lsa, samara tezlashadi. Yangi O'zbekiston islohotlari xalq uchun qulaylik, ish o'rinlari va odil imkoniyatlar yaratishga xizmat qilayotganini ko'ryapmiz. Bu yo'lni izchil davom ettirsak, raqobatdosh iqtisodiyot va ertangi kunga ishonch yanada mustahkamlanadi.

– **Ta'lim va ilm-fan sohasi barqaror taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Yurtimizdagi yangilanishlar jarayonida oliy ta'lim muassasalarining roli va mas'uliyati qanday?**

– Barqaror taraqqiyot sharoitida universitetning roli – jamiyat ehtiyojiga tez va aniq javob beradigan bilim hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ko'rinadi. Shu ma'noda, o'quv dasturlarini mehnat bozoriga bog'lab berish, ish beruvchilar bilan "o'qish-amaliyot-ish" zanjirini kengaytirish, talabaga 3–6 oylik qayta tayyorlash va mikrosertifikatlar orqali tezkor kasbiy yuksalish imkonini yaratish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Ilm-fan natijalarini hayotga yaqinlashtirish uchun kafedra va ilmiy guruhlar mahalliy hokimliklar, korxonalar bilan "bir loyiha – bir muammo" tamoyilida hamkorlik qilishini qo'llab-quvvatladim; natija o'lchovlari faqat maqola emas, joriy etilgan yechimlar va konsalting ishlari bilan ham baholansa, foydasi katta bo'ladi.

Raqamli universitet tamoyillarini kengroq qo'llash, baholash mezonlarini ochiq platformada ko'rsatib borish, akademik halollikni mustahkamlash (antiplagiati, odil apellyatsiya) ommaviy ishonchni oshiradi, deb hisoblayman. Shu bilan birga, ijtimoiy adolatni nazarda tutib, chekka hudud yoshlari va qizlar uchun maqsadli stipendiyalar, mentorlik dasturlari kengaysa, ta'limning ijtimoiy ta'siri kuchayadi.

Xalqaro raqobat nuqtayi nazaridan qo'shma dasturlar, xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik, ingliz tili va raqamli savodxonlikni bazaviy ko'nikma sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Kampuslarda energiyani tejash, chiqindilarni saralab yig'ish kabi "yashil" amaliyotlarni ommalashtirish ham iqtisodiy, ham tarbiyaviy samara beradi. Qisqacha aytganda,

universitet jamiyatga yaqinlashgan sari – bitiruvchiga kasb, ish beruvchiga sifat, mamlakatga raqobatdoshlik keladi.

– **Xalqaro tajribani oliy ta'limga joriy etishda qaysi modellar O'zbekiston uchun samarali deb hisoblaysiz? Siz rahbarlik qilayotgan universitet bitiruvchilari mehnat bozorida qay darajada raqobatdosh?**

– Xalqaro tajribani joriy etishda o'zini oqlagan modellar sifatida dual va kooperativ ta'lim, kompetensiyaga asoslangan baholash, "stackable" mikrosertifikatlar, jamoat buyurtmasiga bog'langan keys va kaps-



ton loyihalarini tilga olish mumkin. Bu yondashuvlar talaba portfoliosida aniq ko'nikma va natijani ko'rsatishga, "universitet – ish beruvchi" aloqasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik, qo'shma dasturlar, ingliz tili va raqamli savodxonlikni bazaviy standart sifatida mustahkamlash ham mehnat bozoriga moslikni oshiradi.

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali 30 yil mobaynida besh mingdan ortiq mutaxassis tayyorladi. Bakalavriatda inson kapitalini boshqarish, xalqaro savdo, iqtisodiy tahlil va ekonometrika, biznesstatistika, loyihalarni boshqarish, moliyaviy menejment, restoran biznesi menejmenti, boshqaruvda raqamli innovatsiyalar, sun'iy intellekt tizimlari kabi yo'nalishtar; magistraturada korporativ moliya, xalqaro iqtisodiyot va biznes, iqtisodiy konsalting, raqamli biznes, strategik menejment, iqtisodiyotda Data Scientist kabi dasturlar shakllangan. Shu tarkib mehnat bozori talab qilayotgan noyob kombinatsiyalarni beradi va bitiruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi.

E'tiborli jihati, magistraturaning barcha tinglovchilari ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritadi. Shu bois darslar ish jarayoniga xalal bermasdan uchinchi smenada tashkil etilgan. Bunday format ish joyidagi vazifalarni darsga, darsdagi yechimlarni ishlab chiqarishga tez ko'chirishga, korxona mentorlari va professor-o'qituvchilarning qo'shma kuratorligi orqali amaliyotni mustahkamlashga imkon beradi. Karyera markazi, ish beruvchilar kengashi va ochiq natijalar paneli bilan uy'g'unlashgan tizim bitiruvchilarning bozordagi raqobat imkoniyatlarini ochiq va ishonchli namoyon etadi. Bu – bir vaqtlar jadid ma'rifatparvarlari orzu qilgan "ma'rifat natijasi – jamiyat manfaati" tamoyilining amaldagi ko'rinishi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

– **Yoshlikda orzu qilgan kasbingiz hozirgi faoliyatingizga yaqinmi? Hayotingizdagi eng katta ustozingiz kim va u insondan nimani o'rgangansiz?**

– Yoshlik orzularim adabiyot, san'at va jurnalistikaga bog'liq edi. Shu tuyg'u hozirgi faoliyatimda ham meni tark etmagan: iqtisodiy kitoblarni, ilmiy asarlar bilan birga she'riyatni mehr bilan o'qiyman. So'zga ehtirom, hikoya qilib tushuntirish, fikrni ravon bayon etish odati aynan o'sha qiziqishlardan shakllangan, shu bois iqtisodchi va ustoz sifatidagi ishingga yaqinlik seziladi.

Taqdir yo'lmda Toshkent xalq xo'jaligi institutidagi talabalik xotiralari o'ziga xos o'rin tutadi. O'sha davrda zilzilga sabab binolar shikastlangach, o'qishimni Moskvadagi G.V.Plexanov nomidagi institutda davom ettirishimni tavsiya qilishdi. 1968-yil diplom oldim, keyin Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga qaytib, o'qituvchilikni boshladim. Keyinroq Moskvada kandidatlik

va doktorlik darajalarini himoya qildim. TDIUda prorektor, Mehnat vazirligi huzuridagi ilmiy markazda direktor bo'lib ishlaganimdan so'ng, Plexanov universiteti filialini Toshkentda ochish taklifi berildi. Shu kungacha rahbar sifatida ushbu maskanda, oliy ta'lim va fanning rivojlanishida xizmat qilib kelmoqdaman. Bu yil filialimiz 30 yilligini nishonladi. Quvonchimiz shundaki, minglab mutaxassislarimiz mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Hayotda ustozlar izi uzoqqa yetadi, degan naql bor. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori bo'lib ishlagan Muham-

uning imkoniyatlaridan dunyo yutoqib foydalanayotgan, ba'zilar esa uni anglashga urinayotgan bir paytda, sizning avval maqolangiz, keyinroq "Sun'iy intellekt barqaror iqtisodiy rivojlanish asosi" monografiyangiz chop etildi. Bugungi zamon sharoitida sun'iy intellekt bilan qanday muomalada bo'lishimiz kerak? Ayniqsa, yoshlar bu borada nimalarga e'tibor berishi zarur?

– Sun'iy intellekt bugun hayotimizning oddiy jarayonlarigacha kirib, yangi imkoniyatlar ochmoqda. Uni hamkor vosita

sifatida ko'rsak, inson tajribasi va hissiyoti sun'iy intellektning hisoblash quvvati bilan uyg'unlashib, tezkor va aniq yechimlar berishi mumkin. Masalan, tadbirkor uchun bozor tahlili, dehqon xo'jaliklarida suvni tejash, shifokorlarda dastlabki diagnostika, o'qituvchilarda esa individual ta'lim trayektoriyasi shunga misol.

Yoshlar uchun e'tibor bersa arziyidigan yo'nalishtar: birinchisi – raqamli savodxonlik va ma'lumot madaniyati. Ma'lumotni tozalash, natijani tekshirish, manbani ko'rsatish odatga aylansa, sun'iy intellekt bilan ishlash sifati ortadi. Ikkinchisi, kreativ fikrlash va muammo qo'yish mahorati: to'g'ri savol qo'ya olish ustunlik beradi. Uchinchisi, etika va huquq: shaxsiy ma'lumot, mualliflik huquqi va akademik halollikka rioya ishonchni kuchaytiradi. To'rtinchisi, fanlararo ko'nikmalar: iqtisod, tilshunoslik, dizayn va ITni bog'lay bilgan yoshlar tez o'sadi.

Amaliyotda qo'llash oddiy qadamlardan boshlansa, ya'ni avval sun'iy intellektidan g'oya to'plash va loyiha rejasiga yordam olish, keyin hisob-kitob va modellashtirishga o'tish, yakunda inson tomonidan tanqidiy tekshirishga vaqt ajratilsa, samarali bo'ladi. Til o'rganishda muloqot mashqlari, tarjima variantlarini taqqoslash va shaxsiy lug'at tuzishda sun'iy intellektidan foydalanish mumkin. Tadqiqotda manbalar ro'yxatini tez tuzishga yordam beradi, ammo xulosani albatta o'zi qayta ko'rib chiqishi zarur.

Jamiyat miqyosida ijobiy ta'sirni oshirish uchun ta'lim, biznes va davlat xizmatlari o'rtaida ochiq hamkorlik kengaysa, natija yaxshiroq ko'rinadi: universitetlarda kapston loyihalarini mahalliy korxonalar ehtiyojiga bog'lash, sun'iy intellekt asosidagi kichik startaplarni qo'llab-quvvatlash, davlat xizmatlarida aholiga qulay chat-yordamchilarni joriy etish shular jumlasidan.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt inson o'rnini egallaydigan emas, insonga imkoniyat beradigan yangi yo'nalish. To'g'ri savol, toza ma'lumot, etik me'yor va ijod o'zaro uyg'unlashtirilsa, bilim tezlashadi, mehnat unumdorligi ortadi.

– **Bugun xususiy tashkilot ochib, unga "akademiya", "xalqaro muassasa" degan maqomlarni berib, odamlarga hovuchlab akademik unvonini tarqatayotganlar uchramoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi sifatida bunga qanday munosabatdasiz?**

– Ilmiy unvon – jamiyat ishonchi va shaxsiy mas'uliyat ramzi. U qonun-qoidalar, uzoq yillik tadqiqot, ochiq muhokama va hamkasblar bahosi bilan beriladi, pul to'lab olinadigan nishon emas. Bugun ayrim xususiy tuzilmalar o'zini "akademiya" yoki "xalqaro muassasa" deb atab, unvon va medallarni savdoga chiqarayotgan holatlar uchraydi. Bunday vaziyatda ayblovdan ko'ra xabar-dorlik va ochiqlikni kuchaytirish samaraliroq ko'rinadi.

Ishonchni oshirish uchun oddiy, ammo foydali tekshiruv qadamlari bor. Birinchidan, unvon beruvchi tuzilmaning huquqiy maqomi va akkreditatsiyasi rasmiy reyestr va veb-saytlarda mavjudmi – shunga nazar tashlash lozim. Ikkinchidan, "akademik" deb e'lon qilinayotgan shaxsning ilmiy izi – ochiq profilari (masalan, Google Scholar), retsenziyalanadigan jurnallarda maqolalari, konferensiya materiallari, monografiyalari bormi? Uchinchidan, unvon berish tartibi ochiqmi: seminar-hisobot, ilmiy kengash qarori, eks-

pertizadan o'tgan ish – shular nazardan o'tsa, jamoatchilik ishonchi ortadi.

Yoshlar uchun eng to'g'ri yo'l – qog'oz unvoni emas, amalda ko'rinadigan portfoli: qisqa kurslardan keyin "akademik" degan yozuv o'rniga jamoat uchun foydali kichik tadqiqot, startap, keys-loyiha, tahlil hisoboti, ochiq platformada e'lon qilingan natijalar bo'lsa, mana shu "ko'rinadigan ilm" ish beruvchi va jamiyat ko'z o'ngida haqiqiy qadrga ega. Ilmiy unvonga da'vogarlik bo'lsa, uning yo'li ham aniq: mutaxassislik bo'yicha tezislar, retsenziyalangan nashrlar, ilmiy kengash muhokamalari va ochiq hisobot – bosqichma-bosqich ochiq jarayon.

Ilm – ochiqlik va halol mehnatga suyana-di. "Sotib olingan unvon" qisqa muddatli obro' keltirishi mumkin, ammo jamoa e'tirofi va vaqta chidamli natija faqat izlanish, haqiqiy xizmat bilan keladi. Shu yo'l qo'llansa, soxta unvonlarga ehtiyoj qolmaydi, jamiyatda esa ishonch va adolat mezonini mustahkamlanadi.

– **Ustoz, mana yaqinda yurtimiz mustaqilligining 34 yilligini keng nishonladik. Mustaqillikning ma'naviy va tarixiy qimmatini qanday baholaysiz?**

– Mustaqillik – milliy xotiramiz va kelajak rejamizni uyg'unlashtirgan eng katta qadriyat. U o'z taqdirimiz haqida qaror qabul qilish huquqini berdi, til va madaniyatimizga asoslangan iftixorni tikladi, davlatimiz ramzlari orqali yurtidoshlik hislarini mustahkamladi. Bu yilgi bayram tadbirlari ham ana shu ma'noga hamohang holda "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'ziga qo'ygan holda tashkil etildi.

Tarixiy jihatdan mustaqillik davri milliy davlatchilik ustunlarini barpo etdi: bular qonun ustuvorligiga intiluvchi tizim, ochiq dunyo bilan teng hamkorlik, fuqarolik jamiyatining kengayishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy taraqqiyotda ham yangi sahifa ochildi. Aj-dodlar merosini erkin o'rganish, teatr va madbuotda sog'lom fikr muhiti, adabiyot va san'atda yangi nafas – bularning har biri yurtga muhabbat va javobgarlik tuyg'usini kuchaytirmoqda.

Hozirgi islohotlar – raqamli yangilanish, yashil iqtisod, inson kapitalini qo'llab-quvvatlash, ochiq ma'lumotga tayangan boshqaruv bilan bog'liq yangilanishlar mamlakatimizni mintaqada ham, jahon maydonida ham ishonchli sherik sifatida namoyon etmoqda. Mening fikrim shunday, mustaqillik – mehnat va birdamlik bilan asraladigan bebaho ne'matdir.

– **34 yillik taraqqiyot tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunda yurtimiz istiqbol uchun qaysi yo'nalishtarga alohida e'tibor qaratish kerak, deb o'ylaysiz?**

– Bir haqiqat bor: jadid bobolarimiz orzu qilgan erkin fikr, ochiq maktab, zamonaviy fan va xalq manfaatiga xizmat qiladigan davlat g'oyasi bugun mustaqillik ne'mati bilan amalda shakllanmoqda. 34 yillik tajriba shuni ko'rsatdiki, taraqqiyotni tezlatish uchun bugun biz uchun jadidcha ruh – ilmga muhabbat, ma'rifatga suyangan islohot, javobgarlik va xalq manfaatiga sadoqat kerak.

Fitrat: "millat boy bo'lsa, ilm boyiydi", degan fikrni uqtirgan. Shu ruhda tadbirkorlik ekotizimini soddalik va ishonchga qurish: kichik biznesga oddiy qadamlar, tezkor xizmatlar, "eksportga tayyor" laboratoriya va sertifikatlash tarmoqlarini kengaytirish, kreativ industriyalar, turizm va raqamli xizmatlarni qo'llab-quvvatlash yangi ish o'rinlari va yuqori qo'shilgan qiymatni ta'minlaydi. Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligi uchun alohida dastaklar – grantlar, mentorlik va bozorga olib chiqish platformalari – jamiyatdagi adolat va imkoniyat tengligini mustahkamlaydi.

Kelajak barqarorligi uchun yashil energetika, energiya samaradorligi, tomchilati sug'orish, xususan, aylanma iqtisodiyot madaniyatini kundalik odatga aylantirish muhim: isrofdan xavfsizlikka, qisqa foydadan uzoq manfaatga o'tiladi. Bu – nafaqat iqtisod, balki tarbiya va madaniyat masalasidir.

Qonun ustuvorligiga suyangan boshqaruv, ochiq ma'lumotlar asosida hisobdorlik, jamoat nazorati, loyihalarda natijaga mas'uliyat ishonchni kuchaytiradi, sarmoya va tashabbus uchun barqaror muhit yaratadi. Ommaviy axborot vositalari esa jadidcha uslubda – ravshan so'z, haq ma'lumot va konstruktiv munozara bilan jamoat fikrini boyitisa, jamiyatning ma'naviy immuniteti yanada oshadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, kelgusi istiqbolda yurtimizga zarur bo'ladigan to'rt ustun shular – ma'rifatga tayangan inson kapitali, ilm va texnologiya bilan to'yingan iqtisodiyot, tabiatga ehtiromli yashil rivojlanish, adolat va ochiq boshqaruv. Shu yo'l "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu shiorni har bir loyiha, har bir xonadonda real natijaga aylantiradi. 34 yillik tajriba shuni eslatadi: o'tmishdan quvvat olib, bugun jasorat bilan ish ko'rsak, ertamiz yanada ravshan bo'ladi.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



“Dunyodagi eng buyuk aql aniq maqsadga yo'naltirilgan aqlidir.

Johann Wolfgang fon GYOTE





MUNOSABAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 23-avgustda imzolagan “O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohaslarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum olim va ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida”gi Farmoni xalqimiz tomonidan ko'zda yosh, qalbda quvonch bilan kutib olindi. Taqdirlanganlar ro'yxatini o'qir ekanmiz, zodagoniy iftixor tuyamiz. Bu ezgu ishning mohiyatini odamlarga yetkazish biz – ziyolilarning vazifamizdir. Shu ma'noda, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan, keng jamoatchilikka nisbatan notanish bo'lgan uch olim haqida yozmoqchiman.

XX ASRDAYOQ SUN'IY INTELEKT USTIDA ISHLAGAN OLIM

Vosil Qobulov jahonga mashhur matematik olim. U XX asrning 2-yarmidayoq



O'zbekistonda kibernetika, sun'iy intellekt, informatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy ishlarni tizimli ravishda olib borgan.

Olim mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Matematika institutining hisoblash texnikasi

bo'limi mudiri, Mexanika instituti va hisoblash markazi direktori, Kibernetika instituti direktori, “Kibernetika” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi bosh direktori vazifalarida ishlagan. Ilmiy faoliyatdan bir lahza bo'lsin, uzoqlashmagan. Aksincha, nazariyani amaliyotga joriy etish asnosida fizika-matematika fanlari doktori (1961), professor (1964), O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1966) kabi ilmiy daraja va unvonlarga erishgan.

Vosil Qobulovning sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizga zamonaviy elektron hisoblash mashinalari keltirildi, oliy o'quv yurtlarida kibernetika, hisoblash texnikasi, informatsion va raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan kafedra va fakultetlar tashkil etildi. E'tiborlisi, akademik Qobulovning bevosita rahbarligida 1976-yili Toshkentda sobiq Ittifoqda yagona bo'lgan “Kibernetika” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ochildi.

Olimning “Hujayra kibernetikasi. Nano-texnologiyalar”, “Raqamli avtomatlar algoritmlari”, “Aql mo'jizasi”, “Kibernetika va biosfera” kabi kitoblari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Ilm-fan sohasidagi yuksak xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti, “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan.

Zamonaviy sun'iy intellekt taraqqiyotida Vosil Qobulovning salmoqli ulushi borligi vatandosh sifatida bizga faxr va g'urur bag'ishlaydi. Yurtimizda sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishda olimning boy merosiga suyanish va undan unumli foydalanish zarur.

MINTAQAMIZ TRANSPLANTOLOGIYASINING FAXRI

O'ktam Oripov – taniqli o'zbek shifokori hamda olimi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan shifokor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Uning nomi Markaziy Osiyoda ilk bor buyrak transplantatsiyasini



amalga oshirgan jarroh sifatida tarixga muhrlangan.

Akademik Oripov umrining katta qismini tibbiyot sohasidagi mas'ul lavozimlarda o'tkazgan bo'lsa ham, tibbiyot fanidan, amaliy faoliyatdan, sohadagi yangiliklardan chetda turgani yo'q. Kasbiga muhabbati, kuchli irodasi va benazir ilmiy salohiyati bilan O'zbekistonda tibbiyot, xususan, transplantologiya rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Bu o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas.

Olim 1971-yilda a'zo va to'qimalar ko'chirib o'tkazishda to'qima nomutanosibligining bardoshliligini o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muammolari laboratoriyasini tashkil etdi. Bu yerda jahon amaliyotida birinchi marta eshakning antilimfositar achiqti va globulini ajratib olindi hamda ular buyrak transplantatsiyasida muvaffaqiyatli qo'llanildi. Shuningdek, II guruh qandli diabet kasallari orasida keng qo'llaniladigan qorako'l qo'y'larning oshqozonosti bezi beta-hujayralarini ko'chirib o'tkazishning innovatsion usuli ishlab chiqildi.

1972-yil 14-sentyabr kuni O'ktam Oripov rahbarligida Toshkent shahrida ilk bor buyrak transplantatsiyasiga oid jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu voqea milliy tibbiyotimizda inqilob sifatida qabul qilgan. Bungacha a'zolar ko'chirib o'tkazish sobiq Ittifoqning sanoqli

yirik shaharlaridagina joriy etilgan bo'lib, Markaziy Osiyo tibbiyotida hali bunday sharaflari va mas'uliyatli tajribaga qo'l urilmagan edi. Ushbu jarrohlik amaliyotidan so'ng O'zbekistonning tibbiyot sohasidagi ilg'orligi xalqaro ilmiy konferensiyalarda ham e'tirof etildi.

53 yil muqaddam qo'yilgan ilk qadam keyingilariga yo'l ochdi. Mamlakatimiz va mintaqamizda transplantologiya tarmog'iga e'tibor kuchaytirildi. Bugungi kunda minglab yurtdoshlarimiz murakkab jarrohlik amaliyoti uchun chet elga chiqish, minglab dollar sarf etish mashaqqatidan xalos bo'lib, yurtimizda davolanish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bularning barchasi bevosita O'ktam Oripovich nomi bilan bog'liqdir.

Ilmiy rahbar sifatida uning qo'l ostida 26 ta doktorlik va 65 ta nomzodlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilingan. O'zining ham sohaga oid 500 ta ilmiy maqolasi chop etilgan bo'lib, uchta darslik va 16 ta monografiya yaratgan. 1983-yilda Beruniy nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Agar O'ktam Oripovga bugungi asrimizdagi ilf-fan yutuqlari mahsulini ko'rish va ulardan foydalana olish nasib etganida edi, O'zbekiston transplantologiya bo'yicha Hindiston, Turkiya kabi lokomotiv davlatlardan o'zib ketardi, deb o'ylayman.

Shu ma'noda, buyuk akademikning ilmiy maktabini davom ettirish, faoliyatini chuqur o'rganish yo'lida marhum xotirasiga hurmat ko'rsatilgani ayni muddao bo'ldi.

MILLIY GEOLOGIYAMIZ JADIDI

Akademik, O'zbekistonda va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, geolog Ibrohim Hamraboiev 32 yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi Geologiya va geofizika instituti direktori bo'lib ishlagan. Ilmiy ishlari asosan Markaziy Osiyo magmatizmi, ayrim majmualari formatiyalarning geokimyoyi va metallogenik xossalari bag'ishlangan. 50-yillarda Markaziy Osiyoda oltin bilan margimushning uzviy paragenезisini aniqlagan. Shu asosda yangi oltin konlari –

Chormiton, Muruntov, Tom-ditov va boshqalar topilgan. Oltinli ruda konlari hosil bo'lishida Yer ichki tuzilishining ahamiyati haqidagi g'oyani rivojlantirgan va O'zbekistonda oltin



va boshqa muhim rudalarni qazib chiqarish sanoatini rivojlantirish bilan shug'ullangan. Ikk bor G'arbiy O'zbekistonning metallogenik xaritasini tuzgan.


Olim xalqaro geologik kongresslar qatnashchisi bo'lgan. Geologiya sohasidagi nazariy va amaliy ishlari ko'lamli, sohadagi novatorlik harakatlari jahon ilmiy doiralari hamda yurtimiz olimlari tomonidan bir ovozdan tan olingan.

Olimning pok nomini abadiylashtirish va porloq xotirasiga hurmat ko'rsatish maqsadida yangi topilgan mineral Ibrohim Hamraboiev sharafiga “hamroboyevit” deb qo'yilgan. Hamroboyevit – titanning V va G'e aralashmasi bilan birgalikdagi tabiiy karbidi. 1984-yilda topilgan. Arashon tog'laridagi bazaltli porfiralar va Zarafshon tizmasidagi kvartslangan granitoidlar tarkibida uchraydi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uch buyuk olim davlatimizning yuksak mukofotlariga bejiz loyiq ko'rilgan. Ularning xotirasini ulug'lash zamirida aniq fanlar, sun'iy intellekt, tibbiyot, geologiya tarmoqlariga berilayotgan katta e'tibor ifodasini ham ko'rishimiz mumkin.

Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori

YANGI NASHR



Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan insonparvar siyosat natijasida dunyoning turli nuqtalarida yashab, ijod qilayotgan vatandoshlar oldiga qo'yilgan to'siqlar olib tashlandi. Endi ular ota yurtlariga erkin kelib-ketishi, ijodini o'quvchilarga yetkazishi mumkin. Agar o'zi olamdan o'tgan bo'lsa, ularning xotirasiga hurmat ko'rsatish uchun ham yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Bugun kindik qoni Andijon tuprog'iga to'kilgan, taqdir taqozosi bilan Saudiya Arabistonining Toif shahrida istiqomat qilgan Ya'qubxo'ja Mahjuriy haqida hikoya qilamiz.

Mahjuriy 1920–30-yillarda bolsheviklarning ta'qib-tazyiqlari ostida majburiylikdan yurtini tark etdi. U ona tilini qo'rsab tilchi va yurtini sog'inib adib bo'ldi. Uning tilshunoslik, tarixshunoslik, adabiyot va ilohiyot

yo'nalishlaridagi ilmiy-adabiy faoliyati tahsinga sazovor.

Bugungi chuqur idrok etilgan haqiqat shuni ko'rsatadiki, sovet davrida o'zbek tili ham xuddi o'zbek ziyolisi kabi turli jafolarni boshdan kechirdi. Natijada, o'zbek tilining ish ko'rish sohasi torayib, qadimgi lug'at boyligi unutilgani hech kimga sir emas. Aslida, bu til turkiy tillarning xoqoni bo'lgani tarixdan hammaga ayon. Buni Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida yaqqol isbotlab bergan. Bu haqiqatni anglagan Mahjuriy domla “O'zbek tili” qasidasida shunday yozadi:

*“Men Temur – Tangri quli” deb
bitgach imzo o'miga
Nomasin Avropalarga
yo'llagan o'zbek tili.
Yozganida Shoh Bobur
nomasin o'zbekchada,
Olam ahli bosh egib,
olqishlagan o'zbek tili.*

Shoir o'zbek tiliga bo'lgan muhabbatini faqat so'zda emas, amalda ham ko'rsatib berdi. Tilimizning grammatik xususiyatlari o'z aksini topgan “Til yo'rig'i” nomli kitob yozdi. Muhojirotda o'zbek tili qo'llanmasiga katta ehtiyoj bo'lgan bir vaqtda vujudga kelgan bu kitob o'z vaqtida katta ahamiyat kasb etgan.

Firoqda hayot kechirarkan, bir lahza yo'q ediki, Vatan hijronida



Ya'qubxo'ja Mahjuriy (1918–1991)

o'rtanmagan bo'lsa. Intizorlik va intiqlik qog'ozga to'kilib, she'rga aylandi.

Yaqinda Mahjuriyning o'quvchini fikrlashga, shukur qilishga undovchi she'rleri bir muqova ostiga jamlanib, “O'tgan umr tushdek, onajon” to'plami chop etildi. Kitobdagi she'rleri arab yozuvidan Muqimjon Nurboyev lotin alifbosiga o'girib, nashrga tayyorladi.

Umidimiz shuki, tirikligida Vatan diydori nasib bo'lmagan shoirning ijodi o'quvchilar qalbidan joy olsa, mutolaa so'nggida marhum vatandoshimiz haqiga duo aylasa-yu, pok ruhi shod o'lsa!

Azizullah ARAL,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

*Bevafolar orasinda oh-zorimga quloq
Solg'uchi bo'lsa agar ul jonajonimni ko'ray.*

*Bormudur insonni qadr-u qimmat dasturida?
To yaqinroqqa borib, bu istag'onimni ko'ray.*

*Nolishim ta'sir qilsa, ahli ma'niga agar
Bog'aro gul yaprog'idak yashnagonimni ko'ray.*

*Chok-chok bo'lgan dilimga chorasizlik aylabon,
Vasl ila payvand qilgan hoziqonimni ko'ray.*

*Yetsa Mahjuriy hayoti intihosiga u chog',
Jismimni bag'riga olgan xokidonimni ko'ray.*

Toif. 1985

KO'RAY

*Posbon, to'sma yo'limni, oshyonimni ko'ray.
Tog'-toshlardan o'tib men xonadonimni ko'ray.*

*Yam-yashil sahrolari, daryolari, gulzorlari
Ko'zlarimdan ketmagan ul bo'stonimni ko'ray.*

*Notavon jismimda imkon boricha titrab borib,
Bog'larining ma'nisi jannatmakonimni ko'ray.*

*Ayriqliq dardida ellik yilni o'tkazdim bu kun,
Umrin oxirlashti, emdi ostonimni ko'ray.*

*Cho'lda qolg'on bir qalandardak kezib yurgan esam,
Ul meni devona qilgan xonumonimni ko'ray.*

Necha asrlik ayovsiz istibdodga – mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurash Jaloliddin Manguberdining bemisli jasorati bilan yakun topgan emasdi. Tarixdagi ajabtovur evrilishini qarangki, vaqti kelib mamlukiy Misr taxtini egallagan uning qondosh-jigarbandi Malik Muzaffar – Mahmud ibn Mamdud Sayfiddin Qutuz shavkatli sarkarda halokatidan 29 yil o'tib, 1260-yilda Ayn Jolut yonidagi muhorabada mo'g'uliy lashkarni tamom yer tishlatdi. Misr taxtiga o'tirganiga to'liq bir yil to'lmagan butun arab o'lkasini qattol istilodan saqlab qolgan Sayfiddin Qutuzning bu yurtlarda afsonaviy xaloskor o'laroq hamon madh etilishi sababi shunda.

AL-O'ZBAKIYALIK SARKARDA

Ayni jasoratning yana bir muhim tarafi – Qutuz ona yurtidan olisda bo'lsa-da, Movarounnahr uchun, tog'asi Sulton Jaloliddin uchun intiqom oldi. Jasoratli o'g'lonlari shavkat-u haybatida tengi yo'q Turkistonning uch ming yillik tarixi siz-u bizga ana shunday adosqiz va ibratli hikoyatlar so'zlaydi. Ikki daryo oralig'idagi bul aziz yurtida bugun turmush kechirayotgan xalqning matonatlariga to'lug' dolg'ali o'tmishi va ushbu kechmishning o'chmas sahifalari qalbmizni nurga chulg'ab, bobolarning yorqin xotirasi yo'llarimizni nurafshon etadi.

2022-yil “Akademnashr” nashriyotida tarixiy asarlari bilan tanilgan iste'dodli adiba Shahodat Ulug'ning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romani chop etildi. Shundan so'ng bu kitob uch bora qayta nashr bo'ldi. Buning sababi ne? Keng o'quvchilar ommasini o'ziga jalb qilib, kitob do'konlarida siyohi qurimasdan tugab qolayotgan asar qatida qanday ma'nolar mujassam?

Avvalo shuni aytish kerakki, bu asar muallifning avvalgi – “Sen yig'lama faqat” va “Jayhun epkinlari” romanlarining uzviy davomi, trilogiyaning uchinchi kitobi hisoblanadi. O'sha ikkinchi kitob yakunida yozib qo'yilganidek, mo'g'ullar tomonidan asir olinib, so'ngra dahshatli istiloga to'g'anoq bo'lgan, mo'g'ullarning jiyani, singlisi Xon Sultonning farzandi – Mahmud Qutuzning daragi oradan yillar o'tib, mamluklar sultonligi – Qohiradan chiqadi. Hali norasida paytida qul qilib sotilgan Mahmud Misrning ilk mamluk sultoni amir Muiziddin Oybek rahnamoligida mansab pillapoyalariidan ko'tarilib, Misr noibi darajasiga yetishgan edi. Oybek o'limidan so'ng qo'shinlar otabegi darajasida sultonlik tizginini o'z qo'lga oladi, 1259-yilda esa Misr taxtini to'la-to'kis egallaydi.

Bu vaqtda mo'g'ullar Shomni (Suriya) egallab, Misrga tahdid qilmoqda edi. Ushbu tahlikali vaziyatda o'zaro raqobatda bo'lgan kuchlarni birlashtira olgan Qutuz qo'shinlari 1260-yil kuzida Ayn Jolut yonida mo'g'ullar bilan to'qnash keladi. Ayovsiz jangda sulton qo'shinlari dushmanga qaqshatqich zarba beradi. Bu g'alaba dahshatli istiloga to'g'anoq bo'lgan, mo'g'ullarning Islom yurtlariga yurishini to'xtatib qolgan ulug' hodisa edi. Uning jasorati faqat bu g'alabadan iborat emas. 1249-1250-yillarda Misr hududiga bostirib kirgan Ovro'palik salibchilarni yenggan ham aynan Sulton Qutuz bo'ldi.

“Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romani ham avvalgi ikki kitob kabi aniq tarixiy faktlar va manbalarga asoslangan. Bu haqda muallif shunday deydi:

“Bundan o'n yillar avval ozarbayjonlik yirik tarixchi Ziyo Buniyotov asarlari, xususan, “Xorazmshoh Anushteginiylar davlati” kitobi, o'sha davrlar tarixidan hikoya qiluvchi Abul Fido va Al-Magriziy asarlari bilan bafurja tanishib chiqqanman. Sulton Qutuz arab diyorlarida, ayniqsa, Misrda tengsiz qahramon sifatida ko'riladi. U haqida ko'plab filmlar suratga olinib, badiiy asarlar yozilgan. Hattoki uning sharaflari hayotiga doir multfilmlar ham yaratilgan. Umuman olganda, Misrda sulton Qutuz yoki boshqa turkiy sarkardalar sharafiga nomlangan ko'plab joylar borligini ko'rish mumkin. Masalan, ulkan Qohira shahrining eng markaziy tumani Al-O'zbekiya deb nomlanadi. Xuddi shu nomda yana ulkan bog' va Misrdagi dastlabki opera teatri ham bor.

Bu misollarning barchasi avvalgi ajdodlarimiz bu davlat tarixida qanchalar muhim o'rinni tutganini aniq ko'rsatib turibdi. Badiiy to'qima o'zi nima? Badiiy to'qima aslida asar muallifi biror-bir tarixiy voqeani tasavvur qilish jarayonida bu voqealarni o'zining badiiy tafakkuridan o'tkazib yaratgan mahsulini hisoblanadi. Bu fantaziya emas. O'lis zamonlarda kechib o'tgan voqealarni badiiy asar shaklida bitish badiiy to'qimasiz aslo mumkin bo'lmagan narsa. Bu asarda ham albatta shunday o'rinni, badiiy to'qima mahsullari bor. Masalan, sulton Qutuzning bir qizga oshiqlik voqeasi shu jumladan. Ya'ni, badiiy to'qima asarning ohanrabosini oshirishga xizmat qiladigan vosita deb o'ylayman”.

Shahodat Ulug' asar yozish jarayonida bobolarimiz kechmishlari – o'tmish yillar uzra parvoz qildi. Xo'sh, bu vaqtlararo sayohat taassuroti qanday bo'ldi? Yana muallifga quloq tutamiz:

“Parvoz etarak Parvon muhorabasiga shohid bo'ldim, xiyonatkor To'xtamish ortidan Rusiya qadar ot choptirib o'tdim, boshqa bir ko'chmanchi xoqon zug'umiga dosh bermay, taqdiri ilohiy ortidan Afg'on sori, undan ham kechib Hind tarafga yo'l soldim, Panipatda hindiyilarning qahri fillari bilan basma-bas olishdim, nihoyasida asrlar qadar sarbaland bo'lgan, bag'rikenglikda tengi yo'q saltanatda asl yurtim hajrida o'rtanib umrguzaronlik qildim. Akbar bo'lib saltanatni mustahkamladim, Shoh Jahon bo'lib Toj Mahalni muqarrar etdim”.

Siz-da o'sha ulug' o'tmishning merosxo'ri ekanligingizni anglarmisiz?.. Javob berishga shoshilmagan. Undan oldin “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romanini mutolaa qiling. Hali bafurja fikr almashamiz. Biz munosabatingizni kutamiz.

Jamoliddin BADALOV



UYG‘OQ XOTIRA



MULOHAZA

XO‘SH, O‘ZIMIZ-CHI?..

Inson o‘z fe‘lidan ko‘rmaydi-da, hayotning beshafqatligidan noliydi, o‘z dangasaligi, uquvsizligini hisobga olmaydi-da, tuzumdan, tizimdan shikoyat qiladi. O‘zining xudbinligidan qutulish xususida bosh qotirmaydi-da, omad kulib boqmayotganidan, quyosh uning yelkasiga ko‘proq nur yog‘dirmayotganidan o‘kinadi. O‘zgalariga mehr qo‘yish, naf yetkazish borasida qayg‘urmaydi-da, unga iltifot-u muruvvat ko‘rsatishmayotganidan g‘ijinadi. Yo shunday emasmi?..

Ha, hasratga, nolishga, zorlanishga, domangirlikka moyillik aksariyat kishilarga xos xususiyat. Albatta, bunday iddaolarning hammasini ham asossiz deb bo‘lmaydi, ular orasida zamonga, makonga qarab e‘tibor berilishi, chora ko‘rilishi zarur mulohazalar, tanqidiy fikrlar bo‘lishi tabiiy. Lekin “Allohniyam, tavbaniyam ay!”, deganlariday, talab qo‘yayotgan ham adolat-u insof yuzasidan: “Xo‘sh, o‘zim-chi, ana shu iddaolaringma munosibmanmi, shunday talablar qo‘yishga ma‘naviy haqqim bormi, yuz berayotgan nosozlik, noqisliklar, yo‘l qo‘yilayotgan nomatlub ishlarda mening ham hissam yo‘qmi?” deb o‘ziga savol berib ko‘rishi ham kerak.

Gapni uzoqdan boshlashga sabab shuki, bir necha oydan beri Andijon shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog‘i to‘g‘risida har turli mish-mishlar urchimoqda. Birov bog‘ bo‘linib, tadbirkorlarga berib yuborilibdi, desa, birov dov-daraxtlar kesilib, ko‘l, amfiteatr-u boshqa inshootlar buzilib, tekislanib, o‘rniga ko‘p qavatli uy-joylar qurilarmish, deb ko‘ngilga g‘ulg‘ula soladi...

Manbalarga ko‘ra, bog‘ o‘tgan asrning 30-yillari boshida hashar asosida barpo etilgan bo‘lib, masalan, 1931-yil bahor kunlarining birida qurilishda 2500 dan ortiq kishi qatnashgan ekan.

Men bu yerni 50-yillarning oxirlaridan beri bilaman. Yam-yashil butazor-u anvoyi gulzorlarga burkangan bog‘da bahordan kech kuzgacha hamisha dam oluvchilar, ziyoratchilar gavjum bo‘lib, kurash va boshqa musobaqalar, sayillar, askiyabozliklar, turli-tuman madaniy-marifiy tadbirlar ko‘p, juda ko‘p o‘tkazilardi. Bog‘ chekkalaridagi qator choyxonalarda nuroniy oqsoqollar-u o‘rta yoshlilar oshxo‘rlilik qilib, miriqib suhbat qurishar, bog‘ o‘rtasidagi kattagina ko‘lda yoshlar motori, motorsiz qayiqlarda suzib, ko‘ngil hushlashardi. Halinchaklar yonida yosh-u bo‘y qizlar, har turli o‘yin maydonlari oldida aksariyat bolalar, o‘smirlar uymlashib, chug‘urlashib, navbat kutib turishardi. Halinchak uchayotganlar, attrakionlarda o‘ynayotganlarning shodon qiy-chuvlari osmonga o‘rlardi. Baxtiyor yigit-qizlarning quvnoq kayfiyati, yosh otanalarning chiroyli kiyingan o‘g‘il yo qizchasini o‘rtaga olib, ikki ko‘lidan tutgancha bog‘ ichida masrur aylanib yurishlari nihoyatda zavqli, ibratli, havasli manzara-holatlar edi. Yemak-ichmakxona borasida muammo yo‘q edi.

Bog‘ etagida viloyat teatrining usti ochiq yozgi binosi bo‘lib, har oqshom “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Tohir va Zuhra”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Xolixon”, “Rustam”, “Ishq bilan o‘ynashma” kabi spektakllar namoyish etilar, tanikli san‘atkorlar ishtirokida katta konsertlar qo‘yilar, tomoshaga kirish uchun chipta topish mahol edi. Xullas, yarim tungacha bog‘dan odam arimasdi.

2000-yili ko‘lning o‘ng – kun chiqish tomoniga bayram tantanalari va boshqa tomoshalar o‘tkaziladigan salobatli, minglab tomoshabingma mo‘ljallangan Amfiteatr qurilgach, bog‘ning qiyofasi yanada zamona-viyilashib, ijtimoiy vazifasi ortdi, ko‘rkiga ko‘rk, fayziga fayz qo‘shildi.

Bog‘ning asosiy boyligi, o‘ziga xos “jihoz”i va har qanday kishi diqqat-e‘tiborini o‘ziga darhol jalb etadigan “eksponat”i ko‘lning chap tarafida qanotlarini yozib turgan, kitob va ommaviy axborot vositalarida “Burgut”, “Ramziy burgut”, xalq orasida esa “Semurg” deb yuritiladigan (men ham uni o‘sha afsonaviy Semurg timsoli degan bo‘lardim) bir necha tonna hajmdagi mahobatli yodgorlik – ulkan qush haykalidir. Menimcha, mamlakatdagi birona madaniyat va istirohat bog‘ida qush zotiga o‘rnatilgan bu darajadagi bahaybat va g‘aroyib obida bo‘lmasa kerak. Burgut (Semurg) go‘yo uzoq o‘lkalardan, tog‘u toshlardan uchib kelib, chanqog‘ini qondirish uchun tumshug‘ini ko‘lga cho‘zib turgan holatda tasvirlangan. Qushning bir necha metrli uzun qanotlari osti qahvaxona bo‘lib, dam oluvchilar ko‘ldan esadigan mayin shabadada muzqaymoqxo‘rlilik qilishardi. Aslida, bog‘ ana shu yodgorlikni ko‘rish, miriqib tomosha qilish va hayratlanish uchun ham kirishga arziydi. Zero, o‘zbek xalq ertaklari va afsonalarida ijobiy qahramonlar, yaxshi insonlarning sadoqatli do‘sti, himoyachisi, eng og‘ir vaziyatlarda ularni xalos etuvchi oliyanob qush – Semurg obrazi mehmonlar-u

mezbonlar uchun eng qiziqarli va zavqbxash tomosha edi...

Bog‘ ostonasida mehmonlar-u dam oluvchilarni buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning bronzadan ishlangan ulug‘vor siymosi xush takallum ila qarshi olardi. Mabodo, bog‘ning mazmuni, vazifasi o‘zgarib ketguday bo‘lsa, hazrat Navoiyning holi nima kechadi, degan savol ham aholida anchamuncha sarosima uyg‘otgani bor gap...

Xullas, ana shu bog‘ taqdiri ayanchli yakun topayotgani to‘g‘risidagi gaplar ko‘plarni, asosan, ziyolilar qatlamini xavotirga, tashvishga solgani rost. Negaki, odamlar qatnovi kamayib, fayzi qochgani bois, bog‘ faoliyati ancha vaqtdan beri to‘xtab qolgan, hudud egalari ko‘chib ketgan hovli misol huvillab yotar edi. Balki shunday sabablarga ko‘ra bog‘ni foydali, samarali maskanga aylantirish borasida har xil fikrlar, mushohadalar tug‘ilsa-tug‘ilgandir, turli takliflar, tavsiya va maslahatlar o‘rtaga tashlangandir...

Darvoqe, oromgoh-bog‘larning kimsasiz,



Qamchibek KENJA,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi

va boshqa soha vakillari ishtirokida ana shu xiyobonning aylana yo‘lga yaqinroq joyiga tantana bilan ko‘chirildi – odamlar loaqal ko‘chadan piyodami, ulovlardami nazar solib o‘tishar, degan niyatda.

Xo‘sh, odamlar astoydil qarab, loaqal ko‘z tashlab, mana shunday ajdodlarimiz, ulug‘larimiz bor-a, deya faxrlanib, bu jasoratli va



e‘tiborsiz, qarovsiz qolishi Andijon shahrida yagona hodisa emas. Bir zamonlar Eski shahar hududiga qarashli ko‘lli oromgoh ham dam oluvchilar nazaridan chetda qolqach, o‘ttiz yil avval Nodirabegim tavalludining 200 yilligi munosabati bilan qayta loyiha qilinib, ta‘mirlanib, sayilgohga aylantirilgan edi. Dastlab bog‘ga odamlar qaytganday bo‘ldi, keyingi paytlarda bu hudud yana deyarli kimsasiz qoldi. Hozir bu bog‘ning taqdiri ham muallal bo‘lib turibdi.

Yana bir misol. Xalqimizning ardoqli farzandi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodi va nomi batamom oqlangach, u tug‘ilib o‘sgan shaharning Soy mavzesida viloyat va Andijon shahar hokimliklari bosh-qoshligida Cho‘lpon nomidagi yangi bog‘ barpo etilib, manzarali daraxtlar, anvoyi gullar ekildi. Bolalar uchun attrakion o‘yinlar o‘rnatildi, bog‘ chekkalarida choyxonalar tashkil etildi. Eng asosiysi, bog‘ning kiraverishiga zamonaviy, maxsus binolar qurildi, Cho‘lpon muzeyi barpo etildi. Muzey ko‘p izlanish va zhamatlar bilan shoir hayoti va ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi eksponatlar – kitob va qo‘lyozmalar, suratlar, kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or buyumlari, boshqa ashyolar bilan jihozlandi. Andijonning ma‘rifatparvar farzandi Zokirjon Mashrabov va boshqa fidoyi xayrixohlar tashabbusi va tashkilotchiligida Toshkent shahridagi 30-yillarda qatag‘onga uchraganlar otligan Bo‘zsvu qirg‘og‘idan – qancha begunohlar qatliga guvoh bo‘lgan makondan tuproq olib kelinib, mazkur bog‘da Cho‘lponning ramziy qabri bunyod etildi, bog‘ markaziga esa shoirning salobati haykali o‘rnatildi.

O‘shanda biz – ijodkor-ziyolilar, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning vorislari haq joyida qaror topganidan, yana bir ulug‘, mo‘tabar yurtdoshimiz o‘zining haqli izlata-ikromiga erishganidan boshimiz ko‘kka yetguday suyungan edik. O‘ylagandikmi, ishgandikmi, bu bog‘ andijonliklarning, shahrimiz mehmonlarining suyuqli oromgohi, muzey esa gavjum va qadrli ziyoratgoh bo‘lajak.

Dastlab biz kutganchalik bo‘lmasa-da, har qalay, uzoq-yaqindan Cho‘lponning ixlosmandlari, ma‘rifatsevar kishilar kelib muzeyni ziyorat qila boshladilar, bog‘ga odamlar kirib, o‘yin maydonlarida bolalarning qiyiqirillari yangrab turdi, choyxonalar ham ishladi. Lekin, hayhotki, bunday gavjumlik, tashriflar uzoqqa cho‘zilmadi, yildan yilga keluvchilar qadami siyraklasha bordi va... to‘xtadi. Ramziy qabr ham, haykal ham mung‘ayib, g‘aribona tushga kirdi. Muzey xodimlarining ko‘zlari eshikda, yo‘lda qoldi...

Viloyat-u shahar rahbarlarining yana boshi qotdi. Odamlarga nima bo‘lyapti o‘zi? Katta yo‘ldan nari borsa yuz qadam ichkariga kirishga ham erinyaptimikin? Chora topildi: asosiy ko‘cha bilan bog‘ oralig‘ida kattagina xiyobon yaratildi va Cho‘lponning haykali viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov tashkilotchiligida, shahar nuroniyolari, ziyolilar

fidoyi adib to‘g‘risida o‘g‘il-qizlari, nabiralarga so‘zlab, ibrat qilib ko‘rsatib o‘tishyaptimi – aniq bir narsa deyish qiyin...

Aytganday, madaniyat, san‘at dargohlari – viloyat teatri, adabiyot va san‘at muzeyi, o‘lkashunoslik va tarix moziyog‘higa qatnovlar haqida ham faqat taajjub va taassuf bildirish mumkin.

Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi va bo‘lyapti? Aniqrog‘i, nega shundaymiz? Chunki kitob, badiiy asar o‘qishdan, teatrga tushib spektakl ko‘rishdan, ommaviy ko‘ngilochar sayillardan uzoqlashib, qay birimiz faqat televizor kanallaridagi backkana, tor maishiy mavzudagi seriallar bilan andamon bo‘lib qoldik: qay birimiz kecha chiqqan estrada artistlarining gala-gala konserti, backkana qo‘shiqlari bo‘lsa, o‘zini tomdan tashlaydigan, qiy-chuvdan, baqir-chaqirdan, qarsakbozlig-u yer tepishdan yayraydigan toifaga aylandik. Ijtimoiy tarmoqlar degan, ziyoni foydasini mudom toptab turadigan bir baloyi azim erkag-u ayolning, o‘smirlar-u bolalarning, umuman, hammaning aql-u xushini oldi – odamzod bu mitti qutining judusiga osongina rom bo‘lib, domiga ilina qoldi (har qalay, boshqa asos, dastak topish qiyin).

Kitob o‘qimaslik, bog‘ga kirmaslik, teatrga tushmaslik, farzand-u nabiralarning o‘qimishli, ilmi, ijodkor, ixtirochi, kashfiyotchi, umuman, el-yurt koriga yaraydigan, jamiyatga nafi tegadigan shaxs bo‘lishlari uchun jon koyitmaslikda, ayniqsa, loqaydlikning hisssasi kattadir. Tanikli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov bejiz shunday deb kuyunmagan: **“Dushmanlaringdan qo‘rqma, ular nari borsa, seni o‘ldirishlari mumkin, do‘stlaringdan qo‘rqma, ular nari borsa, seni sotishlari mumkin, loqaydlardan qo‘rq...”**

Ha, aybni o‘zimizdan emas, o‘zgalardan izlaymiz, kattalardan yozg‘iramiz. Minnatdorlikni, rozi bo‘lishni, shukur qilishni, rahmat aytishni, qanoatni, uzr so‘rashni unutib qo‘yamiz, ammo yozg‘irishni, ta‘na qilishni, talab etishni aslo unutmaymiz. Aksincha, o‘zimizga bog‘liq, o‘zimiz sodir etadigan nosozliklarni ham o‘zgalar gardaniga ag‘darish payida bo‘lamiz.

Darvoqe, yaqinda Navoiy bog‘ida o‘tkazilgan viloyat ziyolilari vakillari ishtirokidagi maxsus yig‘ilishda bog‘ taqdiri muhokama qilinihdi. Viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov bog‘ni tadbirkorlarga ham, boshqalarga ham berish yoki ko‘p qavatli uy-joylar qurish haqida hech qanday reja yo‘qligini, balki uni qayta ta‘mirlab, chinakam oromgohga aylantirishga tayyorgarlik ko‘rilayotganini aytgach, ziyolilar va boshqalarning ko‘ngliga yorug‘lik tushibdi. Demak, endi hamma gap oddiy xalq vakillarida – ular o‘zlariga yaratilgan qulayliklar, imkoniyatlar-u shart-sharoitlardan qanday foydalanishlarida. Zero, oromgohlar-u sayilgohlarni obod-gavjum, fayzli qiladigan, ziyoratgohga aylantiradigan ham xalq, kirmay, befayz qiladigan ham aslida, xalq, odamlar-kul..

Prezidentimiz farmoniga binoan yurtimizda sog‘liqni saqlash, ta‘lim-tarbiya, ilm-fan, diplomatiya, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo‘shgan ulkan hisssasi hamda tavalludining 70 yilligi munosabati bilan taniqli davlat va jamoat arbobi, olim va pedagog, marhum Rustam Qosimov Mustaqillik ayyomi arafasida “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi anjumanlar zalida “Rustam Qosimov zamondoshlari xotirasida” kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tadbirni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov ochib berdi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari Muzaffar Komilov, O‘zbekiston

Gulchehra UMAROVA

Har bir so‘zi saboq, harakati dastur edi

Rustam Qosimov haqida so‘z borsa, suyuqli adibimiz O‘tkir Hoshimovning quyidagi gaplari yodingma tushadi. Yozuvchi maktabi yonidagi charxpalakni eslab yozadi: “Charxpalak kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bundan ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi... So‘ng... bir haqiqatni angladin. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman. Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan! Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan charxpalak – ustozlarim zahmatini oqlay oldimmikan? Bilmadim...”

Men 2017–2020-yillar ustoz Rustam Qosimov rahbarligidagi Davlat boshqaruv akademiyasida dekan bo‘lib ishlaganman. O‘sha paytda oldimizga yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy fikr va g‘oyalarga ega, bilimli, vatanparvar kadrlarini tayyorlash vazifasi qo‘yilgan edi. Bu juda katta mas‘uliyat va mashaaqqat talab etardi.

Davlatimiz rahbarining o‘sha paytlar “Seni nima o‘ylantiradi, deb so‘rashsa, hech ikkilanmasdan, kadrlar masalasi, deb javob beraman”, deya ta‘kidlagani ham ilmiy va malakali, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli, mehnatsevar, fidoyi mutaxassislarni topib, joy-joyiga qo‘yish mamlakat, xalq taqdiriga daxldor qanchalik muhim vazifa ekanini ko‘rsatib turadi.

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlashdek mas‘uliyatli ish aynan Rustam Qosimovdek zukko va ma‘rifatli zot zimmasiga yuklatilgani bejiz emas edi.

Ko‘p yillar davomida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri, vazir o‘rinbosari, Bosh vazirning fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori kabi mas‘ul lavozimlarda xizmat qilgan insonning bu boradagi tajribasiga Prezident ham, hukumat rahbarlari ham ishonardi va bu yuksak ishonch oqlanganini keyinchalik hayotning o‘zi ko‘rsatdi.

O‘sha yillari Rustam Sobirovich, mashhur adib ta‘biri bilan aytganda, haqiqiy charxpalak vazifasini o‘tab, yuzlab boshqaruv kadrlarini tayyorlashga ulkan hissa qo‘shdi.

Agar kimdir mendan sening baxting, omading nimada, deb so‘rasa, hech ikkilanmay, mening baxtim – hayotimda ko‘p ulug‘ insonlarga duch kelganim, ulardan saboq olib yashayotganim, deb javob beraman.

Ana shunday insonlardan biri Rustam Qosimov edi. U kishi bilan birgalahon kezlariam men nainki, rahbarlik mezonini va mahorati, jamoa bilan, odamlar bilan ishlash, muloqot qilish madaniyati, eng asosiysi, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish nima ekanini anglab yetdim.

Hech esimdan chiqmaydi, ishga kirish uchun suhbatga tuni bilan tayyorlanganman, o‘qiganlarimni takrorlab, ingliz tilidan, qonun hujjatlaridan savol-javob bo‘lishini o‘ylab, shunga yarasha hozirlik ko‘rganman.

Suhbat esa butkul boshqacha ruh va mazmunda kechgan.

Salom-alikdan so‘ng ustoz jiddiylilik bilan so‘raganlar: “Qayerdansen?”

“Olmaliqdanman”, – deb shoshib javob berganman.

“Xo‘sh, yaxshi, Olmaliq tarixini bilasanmi?” Mana shu yerda mening, avvalo, o‘z ona shahrim, viloyatim, Vatanim tarixini sevimshim, undan faxrlanishim qo‘l kelgan. Mana shu muhabbat meni tarixni chuqurroq o‘rganishimga sabab bo‘lgan, jumladan, Olmaliq tarixini ham...

“Ha”, deganman ichimda quvonib va o‘qiganlarim, otamdan eshitganlarim asosida javob berganman.

musulmonlar idorasi Faxriy kengashi raisi shayx Abdulaziz Mansur, O‘zRFA vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov, Islom sivilizatsiyasi markazi bosh ilmiy xodimi Zohidillo Munavvarov hamda ko‘plab ma‘ruzachilar arbob va olim bilan bog‘liq yorqin xotiralarni yodga oldi.

Ushbu to‘plam “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan bo‘lib, unda Rustam Qosimovning nuqtadonligi va salohiyati, tashabbuskorligi va tashkilotchilik fazilatlarini, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lida ko‘rsatgan jonbozligi hayotiy misollar orqali bayon etilgan.

Taqdimot so‘ngida olimning umr yo‘ldoshi Dilbar Tillayeva yuksak e‘tibor uchun Davlatimiz rahbariga oila nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Shundan so‘ng mahallam tarixi, muzeylar, muqaddas qadamjolar haqida so‘raganlar.

Bu suhbat hayotimda yangi sahifa ochdi: ishga qabul qilindim. Keyinchalik birga ishlab, yaqindan bildimki, Rustam Sobirovich nihoyatda millatparvar, yurtsevar inson ekan. U kishining ko‘pgina hayotiy o‘g‘itlari hamon yodimda:

“Hech qachon unutma, o‘z tarixini yaxshi bilgan odam, avvalo, yurtini yaxshi ko‘radi, vatanni qadrlaydi, xalqqa xizmat qiladi. Har qanday bilim vatanparvarlik bilan bog‘lansagina, rivojlanishga xizmat qiladi”;

“Kayfiyating o‘ta ko‘tarinki yoki tushkun holatda bo‘lsang, hech kimga hech narsani va‘da qilma, qarorlarni faqat aql va tafakkur bilan qabul qil”;

“Prezidentimiz davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak, demoqda. Akademiya bitiruvchilari mana shu talabga eng birinchi bo‘lib “labbay” deb javob berishlari kerak”;

“Akademiya bitiruvchilari, har bir bo‘ljak rahbar-xodim, albatta, o‘zbek mumtoz adabiyotining eng nodir namunalari o‘qigan bo‘lishi shart”;

“Bilimli kadr – bu hali yaxshi kadr degani emas. Yaxshi kadr bo‘lishi uchun u tarbiyali, millatparvar, yurtparvar ham bo‘lishi kerak”.

Bu kabi hikmatli so‘zlar jonkuyar ustozning biz, yosh xodimlarga uqtirgan eng qimmatli pand-u nasihatlaridan bir shingil, xolos. Aslida, domla bilan birga kechgan yillarimning har bir kuni saboq, har soati tajriba bilan boyib boraverganini bugun anglab yetyapman.

Ba‘zan o‘ylab qolaman, kimdir ma‘lum bir davrni tilga olib, men o‘sha yillari ustozlardan saboq olganman, deydi. Nazarimda, ustozlar sabog‘i yillar bilan emas, balki biz – shogirdlar qilgan ishlarning salmog‘i va samaratsi bilan o‘lchanadi. Chunki, har bir ezgu amaliyot, harakatimiz, qabul qilgan qarorimiz ortida ulardan olgan hayot darsimiz natijasi ko‘rinib turadi.

Rustam Sobirovichning bugungi ko‘pchilik yosh rahbar-u mutaxassislar, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqqa haddan ziyod berilib ketgan o‘g‘il-qizlarimizga o‘rnak bo‘ladigan bir ajoyib fazilati bor edi. Doimiy band bo‘lishiga qaramasdan, u kishi mutolaaga albatta vaqt topardi. Har kuni kamida yuzlab sahifa kitob o‘qishdan tashqari, vaqtli matbuot nashrlari (ular orasida xorijda chop etiladigan gazeta va jurnallar ham bo‘lardi), ilmiy maqolalar, yangiliklar bilan tanishib borishni o‘zlariga muntazam odat qilib olgan edilar.

Ha, ustozlarning har bir so‘zi – xazina, har bir harakati biz uchun maktabdir. Bugun o‘ylab qarasan, Rustam Sobirovich o‘zining ezgu amallari, oliyanob shaxsiyati bilan bizga mana shunday ibrat namunasini ko‘rsatib ketgan ekan.

Ruhlari shod, oxirlatlari obod bo‘lsin.

Otabek HASANOV,
Respublika Ma‘naviyat va
ma‘rifat markazi rahbari,
siyosiy fanlar doktori



YOZISHGA EMAS... SANASHGA-DA ULGURMAYMIZ



Boshlanishi 1-sahifada.

Ikki marta shaxsan o'zim borib shu "dolzarb qurilish"dan reportaj tayyorlaganman. Reportajga "Maktab Oktyabr inqilobining 70 yilligigacha o'quvchilarga quchog'ini ochadi" degan ko'tarinki sarlavha qo'nganman. Ammo negadir o'sha maktab belgilangan muddatda "o'quvchilarga quchog'ini ochmadi" – bitishi ancha cho'zildi.

Shu tariqa, o'sha davrda katta-kichik qurilishlar boshlanganidan toki bitgunicha matbuotning doimiy mavzusi bo'lardi. Avvalida "Falon qishloqda falon o'rinni maktab, qishloq vrachlik punkti, hammom va hokazo qurilishi loyihalashtirildi" mazmunida xabar berilar, keyin qurilish boshlangani haqida salkam bir betlik maqola tayyorlanar, unda binoga ilk g'isht qo'yilishi jarayoni batafsil yoritilar, uch-to'rtta surat ham ilova qilinardi.

O'z davrida "Butunittifoq dolzarb qurilishi" maqomini olgan Tuyamo'yin suv ombori qurilishida viloyat gazetalarini va televideniyesining doimiy shtabi tuzilib, unda uch-to'rt nafar muxbir doimiy ishlagan. Salkam o'n yilda ishga tushgan suv omboridan vaqtli matbuot lofi bilan aytisak, mingdan ortiq xabar va lavhalar bergan bo'lishi kerak.

...Uch yil oldin jiyanim Bog'ot tumani markazidan kelin tushirdi. Kelinni olib kelish uchun borib, tuman markazining shundoq biqinida chinakam bir shaharcha qad rostlaganini ko'rib, hayratga tushdim. Besh, yetti qavatli o'ta shinam va chiroyli turarjoylar, ularning oraliq'idagi bolalar maydonchalari, qo'shimcha xizmat shoxobchalari ikki yil ichida qurib bitkazilgan ekan-... bexabar qolibmiz. Bu yoqda bizga qo'shni qishloqda uchta ko'pqavatli turarjoy binosi shundoq katta yo'l yoqasida to'rt oyda qurib bitkazilib, odamlar ko'chib kirib yashayotganini tasodif bilib qoldim. Yoki tuman markaziga yondosh maskanda yetti va to'qqiz qavatli turar joy binolari ko'z o'ngimizda go'yo yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek paydo bo'lganini birov bildi, birov bilmadi. Bu orada Qoraqum sahrosiga chegaradosh hududda paxta zavodi ish boshlaganidan ijtimoiy tarmoq orqali xabar topdim.

Qo'shni Hazorasp tumanida yashaydigan inim Baxtiyor Shermatov fermer xo'jaligi egasi edi. Keyin fermer xo'jaligini topshirdi. Sababi, uning ilkidagi yerlar tuman markaziga tutash bo'lib, markazni kengaytirish rejasini ishlab chiqilgan ekan.

O'tgan yili tasodif Hazorasp bozoriga borayotib, markazga yondosh – bir vaqtlar Baxtiyor dehqonchilik qilgan o'n besh gektarlik maydonga ko'zim tushib, og'zim ochilib qoldi. Bu yerda besh, yetti va to'qqiz qavatli turar joy binolari go'yo "bir kechada yerdan o'sib chiqqandek" – aksari bitgan, qolganlarida qurilish ishlari ketayotgandi. Bir yil oldin shu yerdan o'tganimda qiyg'os ochilgan paxtalarni ko'rganim bor edi...

Bularni nimaga yozayman?

Mustaqilligimizning 34 yilligiga bag'ishlab Urganch shahrida o'tkazilgan bayram tabirida viloyat hokimi Jo'rabek Rahimov eldoshlarimizni ulug' bayram bilan tabriklar ekan, o'n daqiqalik chiqishida quyidagi raqamlarni sanab o'tdi, xolos. Viloyatda hozirda 433 ta loyiha amalga oshirilayapti. Mustaqillik bayrami arafasida ellikka yaqin maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, sog'liqni saqlash muassasalarini foydalanishga topshirildi. Hozirda qiymati salkam bir yarim milliard AQSh dollariga teng yirik loyihalar ijrosi bo'yicha qurilish-montaj ishlari yakunlanay deb qolibdi. Viloyat markaziga yondosh hududda Prezidentimiz tashabbusi bilan al-Xorazmiy shaharchasi so'ngi ikki yilda paydo bo'ldi.

Hokim o'z tabrigida tadbirkorlar tomonidan bunyod qilinayotgan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod va

Ro'zimboy HASAN

BOQIY MEROS

Tarixdan ma'lumki, jadid bobolarimiz jahon ilm-fani yangiliklari qatorida dunyo adabiyotini ham o'qib, kuzatib borgan. Sara asarlarni tarjima qilib, adabiy maqolalar yozgan. Bunday keng qamrovli adabiy ishlarning bir qirrasini bevosita xitoy adabiyoti va san'atiga tegishlidir. Bu jabhada ham Mahmudxo'ja Behbudiy yetakchilik qilganini ta'kidlash joiz. Alloma aslan xitoycha bo'lgan "Tasoduf" hikoyasini 1909-yilda "Turkiston viloyatining gazetasi"da erkin tarjima qilib chop ettiradi. Bu tarjima Behbudiyning "Tanlangan asarlari"ga "Oq yelpig'ichli chinli xotun" nomi bilan kiritilgan.

Cho'lpon esa 30-yillarda xitoylik shoirlar ijodini rus tilidan tarjima qiladi.

Sevgili yurtimni qoldirib keldim,
Yiroqda... yiroqda... allaqaylarda.
Ba'zida o'ylayman yonib yuragim:
Oh, qachon bo'laman o'sgan joylarda?
"Xu-An-Nan" oqshomi...

Kuz fasli...

Yomg'ir...

Mung'ayib turaman boloxonamda.

Tinglayman: uchmakda tepamda, tomda

Yurtimdan keluvchi o'rdaqlar qur-qur...

Vey In-Yuning ushbu "O'rdaqlar ovozi" she'ridagi sog'inch tuyg'ulari mutarjimning o'sha paytdagi ruhiy kayfiyatini ham ifodalaydi. Tarjima asarlar asos-negizi mutarjim dard-u alamlari, qayg'u-shodliklariga ba'zan uyg'un bo'lishi tabiiy. Cho'lpon o'z xasbi holini xitoylik shoirlar she'rlari vositasida ham so'zlagan edi.

Cho'lpon adabiy maqolalarni ham shunchaki yozmaydi. Yuragiga cho'g' tushsa, "talvasadan dengiz kabi" jo'shib, junbushga kelsa, qalb hayratlari tinchlik bermagan mahali qo'lga qalam oladi.

1935-yili u xitoylik mashhur aktyor Mey Lan Fon (1894–1961) haqida maxsus maqola yozadi. Sahna san'atkorining individual mahoratiga bag'ishlangan bu maqola cho'lponona pafosda bitilgani bilan e'tiborni tortadi. Mey Lan Fon o'sha yili bahorida Moskvaga gastroлга keladi. Cho'lponning san'atkor va san'at qadr-qimmatiga oid ushbu maqolasida shoirona nuqtayi nazar

CHO'LPONNING XITOYLIK SAN'ATKORGA BAHOSI



Mey Lan Fon (1894–1961)

ustuvorlik qiladi. Shu nazmiy kayfiyatga mos ravishda maqolasini aktyor san'atiga baho berilgan to'rt qatorlik she'r bilan boshlaydi shoir.

Cho'lponning yozishicha, Mey Lan Fonni xitoyliklar juda yaxshi ko'radi, uning sahnada yonib turishi, beqiyos mahoratiga nisbatan "yorug' yulduz" deyishadi, yuksak san'atini tog'ning cho'qqisiga o'xshatadi. Cho'lpon Moskva teatrida bu xitoylik san'atkorning olita dramatik asarda o'ynagan rolini e'tibor bilan kuzatadi. Aktyorning qo'l harakatlaridan cheksiz hayratga tushadi. "Uning o'n barmog'i o'n ta talantli aktyorning vazifasini bajaradi: xususan, qo'lini goh yeng ichiga olib, goh chiqarib yeng bilan shunday o'yinlar qiladiki, ko'zingizni uzolmayisiz!" Yana yozadi: "Bu ming yillarning teatri, bu – an'ana teatri, bu – yuksak san'at teatri". Cho'lpon maqolasida nafaqat

MEY LAN FON

Bu Xitoy san'atkorining SSSRga kelib-ketishi munosabati bilan

**Qancha odam shirin kuyli so'zlarin tinglab,
O'yinini ko'z olmasdan ta'qib etadi.
Talvasadan dengiz kabi qaynab-qimirlab,
Alvon rangli sarpolarga ko'zni tikadi.**

Mey Lan Fonning Xitoy xalqi o'rtasidagi obro'sini ko'rsatish uchun bir shoirning yuqoridagi to'rt yo'l baytini keltirish kifoya. Bu to'rtgina, lekin juda samimiy yozilgan yo'llarda Xitoy tomoshabinining o'z sevimli san'atkorining o'yinlarini qanday berilib tomosha qilg'ani tasvir etiladi. Xitoyda Mey Lan



Aktrisa Men Syaodun va Mey Lan Fon. 1927-yil.

Fonning "Yorug' yulduz" deb atalishi bejiz emas. Mey Lan Fon endigina dong chiqara boshlagan davrlardayoq uning o'yinlari to'g'risida bunday bir so'z yurardi: "Uning bir kulumsirashi – ming yillik asirlar, uning bir "oh"i – ming yillik xazon".

...O'tgan mart oyining 27-kuni Maskovning katta tomosha zallaridan "Muzik-xol" zalida uning bir kechalik tomoshasini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Mey Lan Fonning gastrollari chog'ida qo'yilaturg'an piyesalar uchun rus tilida alohida bir libretto kitobchasi chiqarilgan. O'sha kitobcha qo'lmda. Unda 6 piyesa, 6 raqs (oyoq o'yini) ko'rsatilgan: shu 6 piyesaning hammasida Mey Lan Fon o'ynaydi.

Xitoyda ayol ro'lini o'ynayturg'an erkaklar ko'p; unda ayol aralashmagan nuqul erkak tiyot

to'dalari, shuningdek, hech bir erkak aralashmagan ayol tiyot to'dalari bor; unda mana bu so'ng zamonlarda erkak va ayollardan iborat aralash tiyot to'dalari ham yuzaga chiqdi.

...Bukun tiyot-sahna san'atida butun dunyoga o'rnak bo'lib o'turg'an Maskovda san'at shina-vandalari ila liq to'lgan zal o'yin so'ngida Mey Lan Fonni charchatar darajada ko'p martabalar olqishlab chaqirdi. San'at bilimdonlari uning san'atiga oshiq bo'lganlarini aytdilar va yozdilar.

Umuman, Xitoy klassik tiyotri yaponlarning "Kabuk"lari singari Ovrupo uchun, shu qatorda biz uchun ham juda qiziqiruvchi san'atdir. Bu kungi xitoylarning o'zlarini ham tushunmayturg'an bir tilda (VII–VIII asrlar tilida) yozilmish va feodalizm taraqqiyotini ko'rsatuvchi asarlari, har bir asarga mutlaq jo'r bo'lib boruvchi besh tonli (tatar-mo'g'ul unqatoridagi) cholg'isi va kuyi sahna bezalishi, o'yinning qoida (priyem)lari, akto'rlarning texnikasi – mana shularning barchasi xitoylarning o'zlariga xos va biz qiziqaturg'an narsalardir. Cholg'ining ibtidoiyligi (primitiv bo'lishi) uning tatar-mo'g'ullarda qo'llanilaturg'an va bizga yaqin unqatori o'yin qoidalaridagi "shartlilik" (условность)lar, ayol ro'lini erkak o'ynashi, ayniqsa, Buxoro boylarining naqshli va sharaflari mehmonxonalarining ayni o'zi bo'lgan uy zinyati, albatta, bizga tanish va bizning yaqin o'tmushdagi xalq o'yinlarimizga bog'liq; lekin, shu bilan birga, aktyor texnikasi, repertuar boyligi va cholg'ining mukammal jo'r bo'lib borishlari bizga nasib bo'lmagan yuksakliklardir...

Bir bilimdon Mey Lan Fonning qo'l o'yinlaridan bahs eta turib: "Shu o'n ta barmoq bor, boshqa a'zolar bilan hech narsa ko'rsatmasa ham bo'ladi", deydi. Chinakam, uning o'n barmog'i o'n ta talanti aktyorning vazifasini bajaradi, xususan, qo'lini goh yeng ichiga olib, goh chiqarib, yeng bilan shunday o'yinlar qildiki, ko'zingizni uzolmayisiz! Men uning dramoqlariga o'z tikkanim holda o'z Akademik dramamizning o'yin texnikasini o'yladim, qancha achchig' bo'lsa-da, aytish kerakki, biz hali bu xususda ko'p olisdamiz. Abror, sahnamizning maqtanliqlig'i bo'lgan Abror "Sagmuk"da Jar Sivon ro'lini o'ynarkan, o'n barmog'ini barobar bir o'ynatgan edi, men uni sira esimdan chiqara olmayman. Ammo Abror o'zi allaqachon esidan chiqarg'ang'a o'xshaydi.



“Teyotr hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir... Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislardan biri teyotrlardur...

Mahmudxo'ja BEHBUDIY

”

Mey Lan Fon ijodini, balki Xitoy teatri genezisi – manshaini ham yuqori baholaydi.

Maqolada muallif faqat xitoylik san'atkor mahoratiga munosabat bildirish bilan cheklanib qolgan emas. Unda Cho'lpon o'z teatrimiz holiga taqqoslab "qancha achchig' bo'lsa-da, aytish kerakki, biz hali bu xususda ko'p olisdamiz", deb haqiqatni yozadi. Cho'lpon asar tomoshasi jarayonida xitoyliklarning sahna bezagi – "uy zinyati"ga qarab bizdagi sharqona uylarni esga oladi. Ammo "aktyor texnikasi, repertuar boyligi va cholg'ining mukammal jo'r bo'lib borishlari bizga nasib bo'lmagan yuksakliklardir".

Cho'lpon o'z nuqtayi nazariga, g'oyai a'moliga sodiq adib. Shu kichik bir maqolada ham uning "unqator", "qoida", "ibtidollik", "shartlilik" kabi atamalarini muqobili bilan yonma-yon qo'llagan o'zbekona nomlashlarga befarq bo'lmaganini ko'rsatadi.

Shoir xitoyliklar san'atini xolisona maqtaydi. Zamona nozikligi, boshi uzra kezib yurgan qora bulutlar beixtiyor yodiga tushadi chamasi, "Mey Lan Fon tiyotri o'zining nuqul feodalizm jamiyatini tasvir etgan va muning ustiga, feodalizm dunyo ko'rishini aks etdirgan piyesalari bilan bizdan, bizning sotsialistik tiyotrimizdan juda olisda turadi. Bu jihatni olganda, biz Xitoy tiyotridan emas, Xitoy tiyotri bizdan o'rganuvi kerak", degan gapi bilan birdan zamonaning qizil bayrog'i va mafkurasi ortiga berkingandek bo'ladi. Ming yillik bosib o'tilgan tarixiy yo'lni besh-o'n yilda bosib o'tmoq lozimligini ham uqtiradiki, albatta, bunday kosmik harakat – yildirim tezligi aslo imkonsiz ekanini Cho'lponning o'zi ham yaxshi bilar edi. Mey Lan Fon teatri san'ati va san'atkorlariga nazar solmoq lozim. Xo'sh, "uning nimasi bizbob, nimasi bizga begona" – shu kabi jihatlaridan o'rnak olmoq lozim.

Dunyo teatrlari tajribasini tamizlik bilan o'rganishdek Cho'lponning ezgu orzusi hamisha dolzarbdir.

Bahodir KARIM



Boshlanishi 1-sahifada.

Qahramonimiz 1916-yildan o'z pedagogik faoliyatini Toshkentda davom ettirib, rus va tatarlar maktabiga mudirlik qiladi. U o'zining O'zbekistonga kelishi tafsilotini shunday yozadi: *"1916-yil sentyabr oyida men Toshkentdagi Yaushevlar, Nog'oybekovlar va boshqa tatar burjuaziasining vakillari tarkibidagi yashirin tashkilotdan taklifnoma oldim. Bu taklifdan foydalanib, men darhol Toshkentga jo'nab ketdim. Toshkentga kelganimdin so'ng, tatar maktabi mudiri lavozimiga tayinlandim. ...Polkovnik Nog'oybekov, Xalil Shirinskiy (hozirda Davlat bankida ishlaydi), Rahim Tyumenev (Toshkentda sovet partiya apparatda ishlaydi) hamda tatar-boshqird milliy ozodlik harakatining Markaziy Osiyodagi asosiy yadrosini tashkil etgan millioner aka-uka Yaushevlar bilan aloqalar o'rnatdim"*.

Ma'lumki, 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng o'zbek ziyolilari boshchiligida tuzilgan "Sho'royi islomiy" tashkiloti ishida tatar ma'rifatparvarlari ham faol qatnasha boshlagan. Sodiq Abdusattorov ham "Sho'royi islomiy" yetakchilari Sa'dulla Tursunxo'jayev, Nizomiddin Xo'jayev, YusufAliyev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, tashkilot kotibi Abdulhay Tojiyev kabi atoqli jadidlar bilan birgalikda Turkistondagi siyosiy kurash jabhasidan munosib joy olgan, hatto shu tashkilotning rahbarlik o'rinlariga kiritilgan. Tashkilotning faol a'zosi sifatida Toshkentdagi tatar aholisi orasida jadidlik g'oyalari keng tashviq etish bilan mashg'ul bo'lgan.

Jarayonda "Sho'royi islomiy" jamiyati o'z ish faoliyatini ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida "Turkiston sho'royi islomiy jamiyati" ("Turkiston islomiy kengashi jamiyati") deb qayta nomlanadi. Jamiyat o'z faoliyatini faqat mintaqacha chegarasida amalga oshirish bilan cheklanmay, Markaziy Rossiyadagi turk-tatar tashkilotlari, jumladan, "Ittifoq", "Alash" va boshqalar bilan aloqa o'rnatadi.

1917-yil 4-aprel kuni Toshkentdagi rus-tatar maktabi binosida Turkistonda tatar ziyolilarining fuqarolik maqomini oshirish maqsadida mahalliy "Ittifoq" jamiyati tashkil etiladi. 1917-yil 14-mayda bo'lib o'tgan umumiy yig'ilishda jamiyatning nizomi qabul qilinadi, yashirin ovoz berish orqali 21 kishidan iborat boshqaruv a'zolari saylanadi. Uning tarkibiga Xayrulla Raxmatullin, Xalil Shirinskiy, Ibrohim Tohir, Rahim No'mon, Sobirjon Yusupov, Rahimjon Xo'jaberganov, Iskandar Chanishev, Abdurahim Abduholiqov, Sodiq Abdusattorov, Qodir Bulatov,

ERKSEVAR MUHARRIR

Iskandar Shamsuddinov, G'ozii Yunusov va boshqalar kirgan.

1917-yil 25-apreldan tatarlarning "Ittifoq" jamiyati tomonidan Toshkentda "Yashasin millatlarning muxtoriyati!" shiori ostida "Ulug' Turkiston" gazetasi chiqarila boshlagan. Gazetada Sodiq Abdusattorov ham muharrirlik qilib, tahririyatda asosan ichki Rossiyadan kelgan jurnalistlar ishlagan. Nashr



materiallari qamrovi va saviyasi jihatdan boshqa mahalliy nashrlarga qaraganda yuksakroq bo'lgan. Gazetada Rossiyaning markaziy shaharlari, hatto urush jabhalaridan, Ukraina, Finlyandiya, Kavkaz kabi o'lkalar hamda Turkistonning turli viloyatlaridan muxbirlar orqali tezkor xabarlar berib borilgan.

Sodiq Abdusattorov gazeta orqali jadidlarning mustaqil davlat tuzish zarurligi g'oyasini targ'ib qilgan. Nashrning 1917-yil 30-sonida u Turkistonni istiqolga da'vat etib shunday yozadi: *"Eski va yangi usul maktablarining o'quvchilari, ayollar, ishchilar va askarlar birlashmoqdalar, turli joylarda parokanda holda bo'lib kelgan turk o'g'lonlari yana birlashmoqdalar, ular birgalashib ittihadlar, jamiyatlar va Sho'royi Islomiyani tuzmoqdalar. Ular bir fikr, bir maqsad atrofida birlashmoqdalar, o'z qurultoylarini chaqirmoqdalar. Xullas, Islom farzandlari hayot maydoniga o'zining taraqqiyparvar kuchlarini jalb qilib, shu orqali ozod Vatan farzandlari bo'lishga munosib ekanliklarini isbot qilmoqdalar"*.

Fevral inqilobini katta orzu-umidlar bilan qarshi olgan Sodiq Abdusattorov 1917-yil Rossiyada sodir bo'lgan oktyabr to'ntarishiga salbiy baho beradi: *"Men Oktyabr inqilobida umuman ishtirok etmaganman. O'sha paytda yangidan qurultoy chaqirilishi umidi bilan*

yashaganman va hukumatni ag'darish zarurligini ta'kidlagan bolsheviklar siyosatiga qarshi bo'lganman. Men ro'y berayotgan voqealardan chetda turganman. Bolsheviklar Petrogradda hokimiyatni qo'lga kiritib, Toshkent shahri dumasini tarqatilgandan so'ng (bu dumaning a'zosi sifatida eserlar partiyasidan saylangan edim), men Sovet hokimiyatiga qarshi faol

aksilingqilobiy kurash yo'liga o'tdim. Bu kurashni men o'zim a'zosi bo'lgan so'l eserlar partiyasi bilan birgalikda olib borganimni tan olaman".

1917-yil 21-avgustda Toshkent shahar dumasini Toshkentda universitet tashkil etish haqida qaror qabul qilib, uning tashkiliy komissiyasini tuzadi. Bu komissiyaga O'rta Osiyo jadidlik harakatining yo'lbo'shchisi Munavvar qori Abdurashidxonovning taklifi bilan Saratovda o'qigan oliy ma'lumotli advokat, jadidlik harakatining yirik vakili Ubaydullaxo'ja Asadulaxo'jayev va muallim Sodiq Abdusattorov kiritilgan.

Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, 1917-yil noyabr oyida sovet hokimiyati o'rnatilib, Toshkent shahar dumasini tarqatilganidan bir necha kun o'tgach, Eski shahardagi "Beklarbegi" madrasasida sobiq дума a'zosi Mahmudjon qozi Muhiddin Qoziyev rahbarligida maxfiy yig'ilish chaqiriladi. Unda Munavvar qori Abdurashidxonov, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sa'dulla Tursunxo'jayev, Ubaydulla Xo'jayev, Sodiq Abdusattorov va dumaning yana ko'plab boshqa a'zolari ishtirok etadi.

Bu yig'ilishda mavjud siyosiy vaziyatdan foydalangan holda mustaqil davlat tuzish g'oyasini amalga oshirish uchun uyushgan holda harakat qilish haqida qaror qabul qilinadi. Bu ishni

Turkiston muxtoriyatidan boshlash belgilangan. Biroz vaqt o'tgach, Toshkentda ushbu masalani qo'llab-quvvatlash maqsadida ikkinchi yig'ilish o'tkaziladi. Unda avvalgi ishtirokchilar hamda Turkiston o'lkasidagi tarqatib yuborilgan shahar dumlari a'zolari qatnashadi. Bu yig'ilish qaroriga ko'ra, Sodiq Abdusattorov, Zahriddin Al'am (andijonlik, keyinchalik Turkiston o'lkasi muftiysi) va Miller (rus, дума a'zosi) Qo'qonga vakil sifatida yuboriladi. Ularga Turkiston muxtoriyatiga yordam berish va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni tashkil etish vazifasi yuklatiladi. Biroq Turkiston muxtoriyati sovet hokimiyati tomonidan qonga botirilgani sababli, yashirin tashkilot a'zolari bu borada sezilarli natijalarga erisha olmaydi.

Sodiq Abdusattorov 1918-yil bahorida Qo'qondan Toshkentga qaytib, jadidlar – Munavvar qori, Salimxon Tillaxonov, Nizomiddin Xo'jayev va boshqalar bilan hamkorlikda o'z faoliyatini yashirin davom ettiradi. U bir o'rinda xotirlashicha: *"Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, endilikda asosiy vazifa sovet hokimiyati tomonidan yaratilayotgan davlat apparatini milliy ziyolilar ta'siriga olish orqali Turkistonning yanada sovetlashuvini to'xtatish edi. Ayni o'sha tarixiy voqealar sharoitida men so'l eserlar partiyasiga qo'shildim"*.

Sodiq Abdusattorov so'l eserlar partiyasining Markaziy qo'mitasi topshirig'iga binoan musulmon aholi orasida faol targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. Shuningdek, Turkiston ASSR Xalq maorifi komissariati (Narkompros) huzuridagi Turk bo'limi raisi etib saylangan. Ushbu bo'lim tarkibida Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiy va boshqa ziyolilar ham saylangan edilar.

1918-yil oxiriga kelib qahramonimiz Turkiston Respublikasining Maorif xalq komissari etib tayinlanadi. 1919-yil yanvardagi "Osipov isyoni" davrida eserlar partiyasining a'zosi bo'lgan Sodiq Abdusattorov uning qurolli otryadi tarkibida bo'lgan, biroq bu otryadda asosan shahardagi tinch aholi orasida tartibni ta'minlash bilan shug'ullangan. Isyon bostirilgach, u eserlar partiyasini tark etadi. 1922-yili O'rta Osiyo davlat universiteti rektorining o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi hamda bu dargohda Turkiston ASSR barham topgunga qadar faoliyat yuritadi.

1924-yilda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng Sodiq Abdusattorov Moskvaga yuboriladi. Sharq mehnatkashlarining kommunistik universitetida oliy ta'limni davom ettirib, ayni vaqtda mazkur ta'lim maskanida "VKP(b) tarixi" fanidan dars bera boshlaydi. 1924-1925-yillarda Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida turkman guruhiga mudir, 1926–1928-yillari RSFSR xalq komissarligida mas'ul xodim, 1932–1934-yillarda VKP(b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosida mas'ul tarjimon, Marksizm-leninizm universitetida o'qituvchi lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. Moskvadagi faoliyati davrida qozoq ziyolisi va istiqol kurashchisi Turor Risqulov kabi tanikli shaxslar bilan muloqotda bo'lib, Turkistondagi milliy harakatlar va madaniy taraqqiyot masalalari bo'yicha fikr almashib turadi. 1935–1938-yillarda esa O'zbekiston partiya tashkilotida muharrir bo'lib ishlaydi.

Ko'plar qatori Sodiq Abdusattorovning fojiali taqdiri, qismati 1930-yillar oxirida kechgan keskin siyosiy voqealar bilan uzviy bog'liq. Turgan gapki, 1937-yili boshlangan mash'um qatag'on to'lqini qahramonimizni chetlab o'tmadi. "Katta terror" davrida O'zSSR "maxsus uchligi" tomonidan millionlab odam turli bo'ton-u tuhatlar bilan so'roqqa tortilib, 41 ming nafardan ko'proq kishi qamoqqa tashlangani ma'lum.

Sodiq Abdusattorov ham 1938-yil 24-yanvarda NKVD tomonidan hibsga olinadi. "Milliy ittihad" va "Milliy istiqol" tashkilotlariga a'zo bo'lgani, sovet hokimiyatiga qarshi harakatlarda qatnashgani bo'yicha turli ayblovlar bo'yniga ilinib, o'sha yilning 4-oktyabrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor majlisida 52 nafar turkistonlik ziyoli safida "xalq dushmani" sifatida oliy jazo – otuvga hukm qilinadi. Hukm o'sha kunning o'zidayoq ijro etiladi.

Sodiq Abdusattorovning sharaffi nomi davlatimiz milliy istiqolga erishgachgina to'la oqlandi. Uning hayoti va faoliyati tadqiq qilindi, qator maqola va asarlar chop etildi. Asl qahramonlarimizning porloq xotirasi asrlar osha bezavol yashab, kelajak avlodga haq yo'lini yorituvchi charog'bonlik vazifasini bajaraveradi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Xayit Muhtidinov – 1900-yil Buxoro shahridagi savdogar oilasida tavallud topgan. Buxoro amiri Said Olimxonning shaxsiy tansoqchisi bo'lgan. Otasi 1932-yil quloq qilinib, Mirzacho'lga surgun qilingan. 1935-yili ijtimoiy kelib chiqishini yashirgani uchun partiya safidan chiqarilgan.

Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda ayblanib, 1937-yil 21-oktyabrda hibsga olingan. Sobiq amir saroyida xizmat qilgani, sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganini uchun 1938-yil 17-martda "Uchlik"ning qarori bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1958-yil 23-sentyabrda oqlangan.

Tojiali Xaydaraliyev – 1903-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan, dehqon oilasidan. Marg'ilon rayon ijroiya qo'mitasining raisi lavozimida ishlagan.

Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan "Milliy istiqol" tashkiloti a'zosi sifatida 1937-yil 17-sentyabrda hibsga olingan. Tergov bayonnomasida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromov tomonidan aksilingqilobiy tashkilotga jalb qilingani va o'zi boshqarib turgan rayonda sovetlarga qarshi faoliyat olib borganini uchun "Uchlik" tomonidan 1937-yil 15-oktyabrda otuvga hukm qilingani qayd etilgan.

Shamsi Mahmudov – 1904-yil Namangan uyezdi, Baliqchi rayoni, Guliston qishloq sovetining Chuqqayma qishlog'ida tavallud topgan. Bag'dod rayon partiya komitetining ikkinchi kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1937-yil 17-dekabrda hibsga olingan. "Milliy istiqol" tashkilotining rayon sho'basiga rahbarlik qilganlikda, tashkilotga yangi a'zolari jalb qilish bilan shug'ullanishda ayblanib, 1938-yil 20-avgustda 25 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1957-yil 30-dekabrda oqlangan.

Mashrab Xo'jayev – 1908-yil Qo'qon shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Ma'lumoti – o'rta. Bag'dod rayon partiya komitetida ish boshqaruvchi lavozimida ishlagan.

"Milliy istiqol" tashkilotiga a'zolikka ayblanib, 1938-yil 11-martda hibsga olingan. Tashkilot topshirig'iga binoan rayon xo'jaligining turli sohalarida sovet tuzumiga qarshi faoliyat olib borganligi uchun Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1938-yil 20-avgustda 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Bozor Eshonqulov – 1889-yil Bag'dod rayoni Kattahovuz qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Bag'dod rayoni yo'llar bo'limining boshlig'i lavozimida ishlagan.

"Milliy istiqol" tashkilotiga a'zolikka ayblanib, 1937-yil 21-oktyabrda hibsga olingan. Tashkilot topshirig'i yangi a'zolari jalb qilganligi uchun O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi" tomonidan 1938-yil 11-avgustda 20 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, 1958-yil 3-oktyabrda oqlangan.

Madamin Tojiyev – 1907-yil Farg'ona oblasti, Kuybishev rayoni, Oqyor qishlog'ida tug'ilgan. Millati o'zbek, ma'lumoti quyi. Bag'dod rayon partiya komiteti instruktori, ijroiya qo'mitasi kotibi lavozimida ishlagan.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan "Milliy istiqol" tashkilotiga a'zolikka, sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib, 1937-yil 3-oktyabrda hibsga olingan. 1938-yil 11-avgustda 18 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1942-yilda og'ir sharoitli mehnat, g'ayriinsoniy munosabat oqibatida lagerda halok bo'lgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi.

(Davomi kelgusi sonda).

JAHON AYVONIDA

HIBSGA Olishga ORDER

Fransiya sudi Suriya sobiq prezidenti Bashar Asadni hibsga olishga oid order chiqardi, deb yozmoqda "France 24".



Order amerikalik jurnalist Meri Kolvin va fransuz fotografi Remi Oklining o'limi bo'yicha tergov ishi yuzasidan berilgan. Ular 2012-yilda hukumat qo'shinlari tomonidan Hims shahri bombardimon qilinishi oqibatida halok bo'lgandi, deb yozadi nashr.

MADURONI AG'DARISH OPERATSIYASI
AQSH Venesuela Prezidenti Nikolas Maduro rejimini ag'darish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.



Bu haqda "Fox News" efrida AQSH mudofaa vaziri Pit Hegset ma'lum qildi va Oq uy bu vazifani bajarish uchun armiyaning barcha resurslarini ishga solishga tayyorligini qayd etdi. "Venesuelada rejimning ehtimoliy o'zgarishi Prezident Donald Trampning so'nggi qaroriga bog'liq", deb ta'kidladi Pentagon rahbari.

QAYIY HALOKATGA UCHRADI
Nigeriyaning Niger shtatida yuzdan ortiq yo'lovchini tashiyotgan kemandag ag'darilishi oqibatida kamida 60 kishi halok bo'ldi, demoqda mahalliy amaldorlar.



Kema Malale tumanidagi Tungan Sule qishlog'idan Dukka shahriga yo'l olayotgan bo'lgan. Biroq Borgu mahalliy boshqaruv hududidagi Gausava qishlog'i yaqinida suv ostidagi to'ngakka urilib, halokatga uchragan.

ENG KATTA MUZTOG' PARCHALANDI
Dunyodagi eng katta muztog' – "A23a" yoz fasli davomida ming kvadrat kilometrga yaqin maydonni yo'qotdi. Bu haqida Arktika va Antarktika tadqiqot instituti hisobotida qayd etilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, parchalangan muz maydoni 2730 kvadrat kilometrni tashkil etadi, bu taxminan Moskva hududi bilan barobar.



1-sentyabr holatiga ko'ra, muztog' Atlantika okeanidagi Janubiy Jorjiya orolidan 70 kilometr shimolda suzib yuribdi.

SUN'IY INTELLEKTLI DRONLAR
Ukraina jang maydonida ilk bor sun'iy intellekt yordamida dron to'dasini boshqaradigan texnologiyani qo'lladi. Bu haqda "The Wall Street Journal" xabar berdi.



Nashrning bildirishicha, bu usulga kelajakdagi urushlarning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki u bir vaqtning o'zida o'nlab, hatto yuzlab dronni dushman mudofaasiga qarshi yuborish imkonini beradi.

HUKUMAT XALQQA TOVON TO'LAYDI
Avstraliya hukumati noqonuniy ijtimoiy ta'minot qarzlari undirish dasturi qurbonlariga qo'shimcha 475 million Avstraliya dollari (308,66 million AQSH dollari) miqdorida tovon to'lashga rozi bo'lganini ma'lum qildi.

Yuz minglab nafaqa oluvchi "Robodebt" dasturidagi nosozlik tufayli 2016–2019-yillarda xato hisoblangan qarzdorlikni to'lab kelgan. Jarayon sud tomonidan noqonuniy deb topilgunga qadar davom etgan.



Hukumat qirolik komissiyasi o'tkazgan tekshiruv natijalariga ko'ra, ushbu dastur ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni yanada ko'proq qarzga botirgan va ko'plarning o'z joniga qasd qilishiga sabab bo'lgan.

ZILZILA QURBONLARI OSHDI
"Tolibon" rasmiysi Zabihulloh Mujohidning ma'lum qilishicha, Afg'onistonda sodir bo'lgan tabiiy ofatdan so'ng hayotdan ko'z yumganlar soni 1400 nafardan oshgan.

Xabarga ko'ra, qutqaruvchilar zilziladan eng ko'p jabr ko'rgan, xavfli yo'nalishda joylashgan tog'li hududlarga yetib borishga harakat qilmoqda. Yangi raqamlar mahalliy hokimiyat tomonidan taqdim etilgan.





SUD ZALIDAN

Odamzod tafakkuri o'sib, ajdodlaridan ko'ra kengroq fikrlashga o'tgani haqida bong uradi olimlar. Zamonaviy dunyodagi ulkan o'zgarishlar bunga dalil bo'ladi. Lekin ba'zi masalalarda yurtdoshlarimiz tutumlarini ko'rib, eshitib "Nahotki, shu XXI asr odami bo'lsa?!" deb hayron qolaman. Navbatdagi sud jarayonidan chiqar ekanman, shu o'ylar ongimni band etdi. Voqea bunday bo'lgan edi...

Sudlanuvchi Baxtiyor Qo'ziyoyev o'zganing ko'p miqdordagi mulkini firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritish va ishonchni suiste'mol qilish borasidagi xatti-harakatlarini shunday izohladi:

– Men Bahrom Xolmurodovni pora berishga qiziqitirib, katta miqdordagi pulni qo'lga kiritmoqchi bo'ldim. Unga Mudofaa vazirligida yuqori lavozimlarda ishlovchi tanishim orqali jiyani O'ktam Hasanovni Toshkent shahridagi harbiy kafedraga ega bo'lgan Pedagogika universitetiga o'qishga kiritib qo'yishni va'da qildim. Qo'shimchasiga, keyinroq o'qishini Chirchiq shahridagi Oliy harbiy bilim yurtiga ko'chirib berishni aytdim. Buning uchun taxminan 10 ming AQSh dollari kerakligini ta'kidladim.

Jabrланuvchi Qo'ziyoyevning va'dalariga ishonadi. Bolaligidan harbiylikka qiziqqan jiyaning orzularini amalga oshirish uchun har qanday xarajatga tayyorligini bildiradi. Uddaburonligidan suyuqan Qo'ziyoyev joriy yilning 30-may kuni soat 15:30 larda poytaxtdagi kafelardan birida uchrashib pulni olishi, tanishiga vaqtda yetkazib bermasa, o'qishga kirish ishlari ortga surilib ketishi mumkinligini aytib vahima qiladi. Xolmurodov esa barchasi u aytgan muddatda tayyor bo'lishini bildiradi.

Umumiy ovqatlanish maskaniga aytilgan vaqtdan ikki soat avval yetib kelgan B.Qo'ziyoyev oladigan summasiga hal bo'ladigan muammolari haqida o'ylab shirin xayollar surib o'tirar, uning aldoviga laqqa tushgan hamyurti bu mablag'ni topgunicha qancha zahmat chekkani haqida umuman o'ylamasdi. B.Xolmurodov soat millari 15 dan 20 daqiqa o'tganini ko'rsatganida,

kelishilgan joyga yaqinlashadi. Biroq kafe eshigi oldida bu summani topguncha chekkan mashaqqatlarini eslab turib qoladi. Jiyani o'qishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgani, shu pulni bermasa ham o'qishga kirib ketishi mumkinligini o'ylab ikkilanib qoladi. "Agar o'qishga kirolmasa-chi?" Jiyaning tushkun holatga tushib qolishini ko'z oldiga keltirarkan, avvalgi mulohazalaridan voz kechadi.

Aytilgan vaqtda yetib kelgan "o'lja"ni ko'rgan ustasi farangning yuziga tabassum yuguradi. O'midan turib mulozamat qila boshlaydi. B.Qo'ziyoyev fuqaro B.Xolmurodovdan oldindan kelishilgan jami qiymati 127 million 682 ming 600 so'mga teng bo'lgan 10 ming AQSh dollari miqdoridagi pulni qo'lga kiritgan vaqtda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qo'lga olinadi. Firibgar jinoiy harakatlarini o'ziga bog'liq bo'lmagan sababga ko'ra oxiriga yetkaza olmaydi.

– Jinoyat kodeksining 168-moddasida ko'rsatilgan firibgarlik 5 ta qismga bo'lingan, – deydi sudya Malika Qodirova. – Ularning 4 ta qismida jinoyatni qaysi hollarda og'irlashtiruvchi malakalash ko'rsatilgan. Beshinchi qismida yengillashtiruvchi holatlar bayon qilingan. Ya'ni jinoyat sodir qilingandan keyin yetkazilgan zarar to'liq qoplasa, ayblanuvchi, gumonlanuvchi yoki sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmasligi mumkin. Oxirgi nuqta sudning qarori bilan qo'yiladi. Jinoyat kodeksida firibgarlik jinoyati uchun ko'pi bilan 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanadi.

Ijtimoiy turmushda insonlar o'zaro bir-birlari bilan muomala qilar ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o'rnatiladi. Ayrimlar sof, halol yo'li bilan, o'zgarlar haqidin qo'rqqan holda bu munosabatni o'rnatasa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiste'mol qiladi.



Bundaylarning ham jamiyatda o'z nomi bor: firibgarlar va tovlamachilar.

Achinarlisi shundaki, keyingi paytda firibgarlar tufayli ro'y bergan shuncha voqealardan keyin ham firibgar yo tovlamachi qarmog'iga ilinayotgan odamlar soni kamayib qolgani yo'q. Qolaversa, taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari ham qayd etilmoqda. So'nggi yigirma yilliklarning yana bir firibgarligi – bu farzandining oliy o'quv yurti talabasi bo'lishi orzusidagi ota-onaga nisbatan qilinmoqda. Xo'sh, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari nimada? Albatta, bilimsizlikda. Toki biz zamon o'zgarishlari va yangiliklarini o'z vaqtda mushohada qilib, hushyorlik va sezgirlikimizni oshirmasa ekanmiz, farzandlarimiz uchun munosib hayot tarzini yaratmaymiz. Ularga ibrat bo'la olmaymiz.

– Qilgan ishim xatoligini tushundim, – deydi sudlanuvchi B.Qo'ziyoyev. – O'zim oliy ma'lumotliman. Lekin mehnatga bo'yim yor bermadi. Tez va oson keladigan pulga uchdim. Oxiri voy bo'lishini sezmasam ham, xuddi qo'lga tushmaydigan yurardim. Bugun mahalla-ko'y, qarindosh-urug', ayniqsa, farzandlarim oldida juda

Qarmoqqqa kim ilindi?

ekan. Peshona terimiz bilan topilgan pulni firibgarlarga emas, bolalarimiz bilim olishlari uchun sarflaylik.

– Fuqarolar firibgarlar domiga qanday ilinib qolmoqda? – deydi Respublika Sudyalari oliy kengashi matbuot kotibi Tursunali Akbarov. – Firibgarlarning o'zlari ham o'zlarini "firibgar" deb bilishdimi, tan olishdimi? Yo'q, ularning hech biri qilmishini tan olmaydi, aksincha, maqsadi odamlarga yordam berish bo'lganini ta'kidlashadi. Biz kattalar maqsadga kimmirdi aldash yoki qaysidir firibgariga murojaat qilish bilan emas, mushkul va murakkab ko'rinsada, halol mehnat, mustahkam bilim orqali erishishni farzandlarimizga targ'ib qilishimiz kerak. O'g'il-qizlarimizni mustaqil hayotga to'g'ri yo'naltirishimiz juda muhimdir.

Sud majlisida B.Qo'ziyoyev oliy ma'lumotli bo'la turib, o'z vaqtini, rejarlarini to'g'ri taqsimlay olmagani haqida afsus bilan gapirildi. Uning so'zlarini eshitib, ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning mana bu so'zlarini esladim: *"Bu jaholat xohishdurki, millat foydasi uchun jonni qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivoxonalarga sarf etmaktadurlar"*.

Yuqorida bugungi ayrim odamlarning qadimgilardan ham ortda qolayotgani haqida gapirdik. Gap shundaki, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari ochiqlik va adolat mezonlari bilan o'tayotgan, testlarni kompyuter tekshirayotgan, amaliy sinovlar kuzatuv kameralariga muhrlanayotgan bir zamonda pora bilan ish bitadi, deb o'ylash qanchalik aqlga to'g'ri keladi? Axir, qadimdan najotkorlik da'vo qilganlarning barchasidan dalil-hujjat so'ralgan-ku! Nahotki, shu oddiy narsaga ham aqlimiz yetmasa?

Muxtasar TOJIMAMATOVA

TARMOQLARDA NIMA GAP?

PALAG'DA TUXUM
HIDIDAN BILINADI

O'z davrida yosh yozuvchilar yangi asarini **Abdulla Qahhor nazaridan o'tkazib olishni orzu qilgan. Ammo bu oson emasdi. Chunki so'z zargari bo'lgan adib yuzta asardan bitta yo ikkitasini tan olmasa, qolganini qaytarib bergan.**

Bir-ikki surbetlar esa adibni ko'yo yangi oqimlarni tushunmaslikda ayblab, qo'lyozmalarini o'tkazishga harakat qilar ekan: "Il'timos, yana bir qaytadan o'qib chiqing, mening stilim shunaqaroq, kosa tagida nimkosa qabilida yozaman". Shundaylardan biri Qahhorning qahriga uchrab, shunday javob olibdi: "Birodar, tuxum ayniganini bilish uchun uni oxirigacha yeyish shartmas. Hididan bilinib turadi!"

Bugun bu gapni ijtimoiy tarmoqlardagi bemaza postlarga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi. Oldimizdan chiqqan har bir kontentga munosabat bildirish, agar yoqmasa izohlarda "uchinchi jahon urushi"ni boshlashimiz shart emas. Saviyasiz yo axloqsiz postga ishora qilib o'zimiz ham post qo'ysak, bu bilan uning tegirmoniga suv quygan bo'lamiz.

Chunki ko'p va tez munosabat (ijobiymi yoki salbiy – farqi yo'q) bildirilgan post ommalashib ketadi, "baxti ochiladi".

Shuning uchun "virusli" kontentlarni e'tiborsiz qoldiring. Dislayk bosdim, haqorat qildim, degan gaplar ketmaydi. Instagram, facebook, telegram, yutub kabi tarmoqlar sizning so'kinishingiz yoki tarbiyaviy ma'ruzagizni tushunmaydi. Ularga munosabat soni muhim, sifati emas.

Aynigan tuxumning hidini sezdingizmi, qozon qopqog'ini yoping. Uni boshqalarga ham yedirishga urinmang. Bundan foyda yo'q!

Olloyor BEGALIYEV

O'ZBEK TILIM – O'Z TILIM

Bundan 33 yil oldin menda o'zbek tilini o'rganish fikri tug'ilgandi. Bu, albatta, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan bog'liq.

1991-yildan so'ng yurtimizda o'zbek tili kurslari faoliyati sezilarli darajada rivojlandi. Bu kurslarda asosan boshqa millat vakillari tili o'rganishardi. Boshqa koreys millatdoshlarim qatorida men ham o'zbek tilini mukammal o'rganishga kirishgandim. Biroq o'sha paytlar o'tish davri bo'lgani uchunmi, darslarga muntazam qatnashish imkonim bo'lmadi. Shu sababli, til o'rganishim biroz cho'zildi. Vaqt o'tib, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, o'zbek tilini tushunadigan, bemaol fikrimni ifodalaydigan bo'ldim.

Men til o'rgangan paytda hamma kirill alifbosida yozardi. Xabarigiz bor, keyingi yillarda asosan lotin alifbosida ish olib borilmoqda. Savodimni oshirish va nevaralarimning o'zbek tili darslariga qarashish uchun yana o'zbek tili kurslariga qatnay boshladim. Hozir nevaralarim maktab dasturi doirasida o'zbek tilini katta ishtiyoq bilan o'rganmoqda.

Til bilishim menga erkinlik berdi, desam ishonasizmi? Istagan joyimda, xohlagan odamim bilan mustaqil muloqot qila olaman. O'zimga kerak bo'lgan manzilni ko'chadagi istalgan odamdan so'rab, topib bora olaman.

O'rni kelganda, o'zbek tili bilan bog'liq xotiramda qolgan ayrim voqealarni aytib beray. Ikki qizim va nevaralarim bilan Turkiyaga sayohat qildik. Havo almashganigami, qizim betob bo'lib qoldi. Shifokorga olib bordik. U yerda mahalliy aholi rus tiliniyam, koreyschaniyam tushunmaydi. Beixtiyor turklarga o'zbekcha gapirib yubordim. Albatta, ular meni yaxshi tushunishdi. Til o'rganishning foydasini mana

TILBILIM

Tilimizda kayf va kayfiyat so'zlari bor. Qizig'i shundaki, keyingi davrlarda **kayf** so'zi aytilishi bilan salbiy ma'noda ko'rinish beradi. Masalan: **kayf qilib yotibdi, g'irt kayfda, kayf qildik** kabilar. Bu gaplarning **birortasida yaxshilik alomatini sezmayis. Nuqul maishat-parastlik, bema'nilik, harom-xarishlik mazmuni chiqib kelaveradi.**

Lekin, kayf so'zidan paydo bo'lgan kayfiyat so'zi buning

aksi. Kimni ko'rsangiz avvalo uning kayfiyatini so'raysiz. A'lo kayfiyat tilaysiz. Kayfiyati yaxshi deganda odamning chiroyi ochiladi, kayfi yaxshi desa, burun jiyriladi. Holbuki, bularning ikkisi ham bitta so'z. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da arabcha **kayf** so'zi "**rohatlandi**", **kayfiyat** so'zi esa, "**ruhiy holat**" ma'nosini

bildiradi. Bunda **kayf** so'ziga **-iyyatun** qo'shimchasi qo'shilgan xolos. Bitta so'zning ikki qiyofada namoyon bo'lishi tildagi qiziq hodisalardan. Kayfiyat so'zi falsafiy ma'no ham kasb etib ulgurgan. Nodirabegimda shunday misralar bor: **Maqsad ne edi jahona kelding, Kayfiyatingni bayon etib ket.**

Emma AN:

“YUTSAM YUTDIMKI,
KAM BO‘LMADIM...”

shu musofirlikda anglab yetganman. Turkiyada o'tgan sayohatimiz davomida faqat o'zbekcha muloqot qilganmiz...

Yana bir holat: ro'zg'orlik qilish uchun bozorga borganimda, mening o'zbekcha gapirganimni ko'rgan sotuvchilar xaridimga chegirma qilib beradi. Narxidan o'tib berishmasa, o'zbekcha

savdolashaman. "Bo'lishi qancha, necha pul qiberasiz, ozroq kelishtirib bering", deymam chapani o'zbeklardek. Qisqasi, o'zbekchani o'rganib yutsam yutdimki, aslo kam bo'lmadim.

Nevaralarimning dunyoqarashini kengaytirish va o'zbek madaniyati bilan tanishtirish maqsadi- da ularga o'zbekcha kitoblarni o'qib beraman. Hammasidan ham, o'zbek xalq ertaklari nevaralarimning sevimli kitobiga aylanib ulguragan. Eshitib tushunishni rivojlantirish uchun oilaviy o'zbekcha konsertlarga tushib turamiz.

Fursatdan foydalanib, davlat tili bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtiruvchi mutasaddilarga taklif sifatida ba'zi fikrlarimni aytib o'tmoqchi edim.

O'zbek tili kurslariga borib, til o'rganish uchun hammada ham imkon bo'lmisligi mumkin. Shuni hisobga olib, boshlang'ich darajadagi o'zbek tilini o'rgatish uchun qo'llanma va lug'atlarni ko'proq chop etish lozim. Kerak bo'lsa, ularni madaniy markazlar orqali boshqa millat vakillariga tekin tarqatishsin. Bugun hammaning qo'lida telefon. Yurtimizning ixtirochi yoshlariga yanada ko'proq o'zbekcha so'zlashgich ilovalar yaratishlarini taklif qilardim. O'ylaymanki, murojaatim o'z egalariga yetib boradi.

Men, O'zbekiston fuqarosi sifatida davlat tilini bilish har bir yurtodoshimiz uchun burch, qolaversa, hayotiy zarurat, deb hisoblayman.

Dilmurod DO'STBEKOV
yozib olgan.“KAYF”NING
AYBI NIMA?

Tasavvur qiling, agar shu she'rdagi satr "kayfingni bayon etib ket" shaklida aytilganda nima bo'lardi? Rasvo bo'lardi. Lekin kayf ham, **kayfiyat** ham aslida bitta so'z. Faqat sho'rikkina kayf yomonotliqqa chiqib bo'lgan.

V.Radlov kayf so'zini "**sog'liq**", "**shodlik**" ma'nosida izohlagan. Kayfsiz so'zini "**sog'lom emas**", "**kasal**", kayfsizlik so'zini esa, "**kasallik**" deb sharhlagan (В.Радлов. "Опыт словаря тюркских наречий" 2-том).

Eshqobii SHUKUR

Jadid

Jadid, buni o'qib va ijtimoiy tarmoqlarda

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASIRESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASIMILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDIBosh muharrir:
Iqbol MirzoMas'ul kotib:
Shuhrat AzizovNavbatchi muharrir:
Otabek BakirovSahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora ToshevaMuallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.Adadi – 19 083
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 434
Lotin yozuvida – 11 649
Media kuzatuvchilar – 83 739
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz